

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

fakultet dekani

_____ f.f.d. **B.Abdushukurov**

“ _____ ” _____ 2018-yil

5111200-O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
4-bosqich 403-guruh talabasi **Xo‘jamberdiyeva Shohida Rahmonjon qizining**
“Ma‘no ko‘chish turlarini o‘qitish metodikasi” mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

_____ **M.Umurzoqova**

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi
kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

_____ **K. Mavlonova**

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi
kafedrası o‘qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi
kafedrası mudiri

_____ f.f.n. **I.Azimova**

“ _____ ” _____ 2018-yil

_____ **Sh. Qayumova**

Nizomiy nomidagi TDPU
akademik litseyi ona tili va
adabiyot fani o‘qituvchisi

M U N D A R I J A

Kirish	3-6
---------------------	-----

I BOB. ONA TILI TA'LIMIDA MA'NO KO'CHISH TURLARINI O'RGATISH USULLARINING ILMIY-METODIK ASOSLARI

1.1. Ma'no ko'chish turlari haqida nazariy ma'lumot va uni o'qitish usullarining ilmiy-metodik adabiyotlarda yoritilishi.....	7-15
---	------

1.2. O'quvchilarning nutq madaniyatini ma'no ko'chish turlari orqali rivojlantirish imkoniyatlari yuzasidan dastur va darsliklar tahlili.....	15-21
---	-------

II BOB. MA'NO KO'CHISH TURLARINI O'RGATISH METODIKASI

2.1. Ona tili darslarida ma'no ko'chish turlarini o'rganish orqali nutq madaniyatini rivojlantirishning mazmuni.....	22-30
--	-------

2.2. Ma'no ko'chish turlarini ona tili va adabiyot darslarining o'zaro integratsiyasi asosida o'rganish	30-38
---	-------

2.3. Ma'no ko'chish turlarini o'rgatish orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish usullari	38-52
--	-------

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI.....

3.1. Tadqiqot natijalarini tajriba-sinovdan o'tkazish uchun tayyorlangan materiallar	53-57
--	-------

3.2. Ma'no ko'chish turlarini o'rganish orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini oshirishga doir ochiq dars ishlanmasi.....	57-64
---	-------

3.3. Tajriba-sinov ishlari tahlili.....	64-67
---	-------

Xulosa	68-70
--------------	-------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	71-74
---	-------

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Davlat ta'lim standartida ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi sifatida o'z fikrini o'gzaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qila oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgarlar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish¹ belgilab berilgan.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda ona tili va adabiyot o'qituvchilarining oldidagi eng muhim vazifa nutq madaniyatiga ega bo'lgan ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashdan iboratdir. Nutq madaniyati haqida gap borar ekan, o'quvchilardagi so'z boyligi va mana shu so'z zaxirasidan kundalik hayotda foydalanish, shunchaki foydalanish emas, balki qanday foydalanish yo'llarini o'rgatish amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning eng muhimi sanaladi.

O'quvchilar nutqining go'zalligi, izchilligi va ta'sirchanligi asosan ularning lug'at boyligi bilan bog'liq ekanligini inobatga olgan holda, ta'lim tizimida boshlang'ich sinflardan boshlab to akademik litsey va kasb-hunar kollejlarigacha bo'lgan davrda o'quvchilar o'rganadigan so'zlar lug'atini kengaytirish ona tili va adabiyot o'qituvchilari faoliyatining asosini tashkil etishi lozim.

Inson shaxsining kamol topishida, ma'naviy dunyosi, tafakkuri, nutq boyligi shakllanishida ona tili darslarining to'g'ri tashkil etilishi, mazmunan keng qamrovli bo'lishi muvaffaqiyat garovi sanaladi. Zero, ona tili millat tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va namoyon ettiradi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov ham o'zining “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asarida ona tilimizning ana shu jihatiga alohida urg'u bergan: “Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori // Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. O'zbekiston Respublikasi Qonunlar to'plami.

tili – bu millatning ruhidir”². Shu bois ona tili ta’limi samaradorligini oshirish davlat siyosatiga darajasiga ko’tarildi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-aprelida qabul qilingan qaroriga muvofiq bugungi kunda ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv vujudga keldi. Unda “Ta’lim to’g’risida”gi va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq, umumta’lim fanlarini o’qitishning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o’quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil qilish zarurligi qayd etiladi. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy talablaridan biri ilg’or pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga olib kirib, o’quvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fikrlashga o’rgatishdir. Akademik litseyda o’qitiladigan barcha fanlar qatori, “Hozirgi o’zbek adabiy tili” fanidan o’tkaziladigan mashg’ulotlarni ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish yaxshi samaralarni qo’lga kiritishning kalitidir. Shunday ekan, “Hozirgi o’zbek adabiy tili” darslarida o’quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta’lim jarayoniga turli xil ilg’or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish lozim.

Hayot sur’atlari benihoya tezlashgan bugungi globallashuv davrida o’quvchilarning ijodiy tafakkur qobiliyatini o’stirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to’g’ri, ravon va mustaqil bayon qilish ko’nikmasini shakllantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish ona tili ta’limi oldidagi eng muhim vazifalardan biri sanalishini yanan bir bor eslatgan holda, ushbu vazifalarni amalga oshirishda so’z va uning xususiyatlarini, xususan, ma’no ko’chish hodisasi, uning turlari haqidagi nazariy ma’lumotga ega bo’lish, undan nutqda o’rinli foydalanish ham o’quvchining nutq madaniyatini shakllantirishga, aytilayotgan fikrning hissiy-ta’siriy jihatdan boyishiga erishishda juda muhim ahamiyatga egadir.

² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. 64-b.

Aynan ma'no ko'chish turlarini o'rgatishning turli xil usullarini ishlab chiqish, ulardan nutqda foydalanishning ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirishning yangi, zamonaviy metodlarini yaratish bugungi kun ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Ishlab chiqilgan usullardan samarali foydalanish esa o'qituvchidan o'z fanini puxta bilishni, ilg'or zamonaviy o'qitish usullaridan samarali foydalanish yo'llarini kashf eta olish va amalda qo'llay bilishni talab qiladi. Shundagina o'qitish sifati ham, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ham yuqori bo'ladi.

Yosh avlodning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish, uning so'z boyligini oshirish masalasiga to'xtalar ekanmiz, tilshunoslikning so'z ta'limoti haqidagi bo'limi - "Leksikologiya" ushbu yo'nalishdagi juda keng imkoniyatlarni yaratib bera olishini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

"Leksikologiya" bo'limida o'quvchilar duch keladigan birinchi muammo esa so'zning o'z va ko'chma ma'nolaridir. Berilgan so'z birikmalarini ko'chma ma'nosiga ko'ra guruhlarga ajratish, ularni o'zaro qiyoslash asosida so'zni o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llab gaplar tuzish, badiiy matnlarni tahlil qilish, so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llab matn yaratish singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Ma'no ko'chish turlarini o'rgatish usullarini ishlab chiqish, ushbu mavzuni zamonaviy interfaol metodlar asosida o'qitish va uning natijalarini o'rganish bugungi kunda metodika fani oldida turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biridir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi ta'lim bosqichlarining ona tili va hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida ma'no ko'chish turlarini o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi:

- ona tili ta'limida ma'no ko'chish va uni o'qitish usullarining ilmiy-metodik asoslarini o'rganish;
- ma'no ko'chish turlarini o'rgatishni ona tili va adabiyot fanlarining o'zaro integratsiyasi asosida o'qitish mohiyatini ochib berish;

- ma'no ko'chish turlarini o'rganish orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan usullar, mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslash;

- ma'no ko'chish turlarini o'rganish orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan usullar, mashq va topshiriqlardan amaliyotda foydalanish va uning natijalarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- ona tili darslarida nutq madaniyatini oshirishda ma'no ko'chish turlarini o'rgatishning bugungi holati o'rganilgan;

- ma'no ko'chish turlarini o'rganishda darslarni integratsiya asosida tashkillashtirishning usullari ko'rsatilgan (Cho'lpon she'rlari asosida);

- ma'no ko'chish turlarini o'rgatish orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan usullar ("Venn diagrammasi", "Qiyosiy tahlil", "Bo'sh o'rinlarni to'ldir", "Mantiqiy mushohada", "Uyadosh so'zlar guruhi bilan ishlash", "Izohli lug'at", "Ijodkor o'quvchi" va h.) asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning obyekt. Tadqiqotning obyekt sifatida akademik litsey va kasb-hunar ta'limi tizimida ona tili darslarida o'rgatiladigan ma'no ko'chish turlari (metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik)ni o'qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Akademik litsey va kasb-hunar ta'limida ma'no ko'chish turlarini o'qitishning mazmuni, shakllari, takomillashtirilgan usullari.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ishlab chiqilgan umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar va akademik litsey ta'limi bo'yicha tavsiyalar, o'quvchilarga ma'no ko'chish turlarini o'rgatish usullaridan ta'lim jarayonida foydalanilgan. Natijada ta'lim samaradorligi oshgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. ONA TILI TA'LIMIDA MA'NO KO'CHISH TURLARINI O'RGATISH USULLARINING ILMIY-METODIK ASOSLARI

1.1. Ma'no ko'chish turlari haqida nazariy ma'lumot va uni o'qitish usullarining ilmiy-metodik adabiyotlarda yoritilishi

Tilimizdagi so'zlarning juda katta qismi ko'p ma'nolidir, chunki kishilar o'zining kundalik hayotida yangi paydo bo'lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so'zlar qo'llayveradigan bo'lsa, so'zlarning soni o'ta ko'payib ketib, ularni xotirada saqlash mumkin bo'lmay qolardi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qolgan bo'lar edi.

Shuning uchun ham har qaysi tilda sanoqli til birliklarning turli xil kombinatsiyalaridan cheksiz tushuncha va fikrlarni ifodalashga harakat qilinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda ilgari mavjud bo'lgan so'zlarga yangi-yangi ma'nolar yuklanadi. Natijada, ko'p ma'noli so'zlar maydonga keladi. Masalan, “*tosh*” so'zi dastlab “qattiq”, “sovuq jism” ma'nosida qo'llangan: “*Yo'lda tosh yotibdi*” Keyinchalik “qattiqlik” ma'nosini faollashtirib, *tosh bag'ir, bag'ritosh* birikmalarida bag'irning sifatlovchisi vazifasida ko'chma ma'noda qo'llanila boshlangan. Yoki “*ko'z*” so'zi dastlab faqat “tirik organizmning qavariq shaklga ega bo'lgan ko'rish a'zosi” ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik “qabariqlik” ma'nosini faollashtirish asosida “*daraxtning ko'zi*”, “yorug'lik bilan ta'minlash” ma'nosini faollashtirish orqali “*derazaning ko'zi*” ma'nolarida qo'llanila boshlandi.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llaniluvchi so'zlarga ko'p ma'noli so'zlar yoki polisemiya deyiladi.

Polisemiya yunoncha *poli* — ko'p, *semia* — ma'no so'zlaridan olingan bo'lib, ko'p ma'noli demakdir. Polisemiya monosemiya (yunoncha *mono* — bir, *semia* — ma'no)ga zidlanadi.

Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no qanchalik ko'p bo'lsa ham, lekin u bir so'z hisoblanaveradi. Shuning uchun ham ko'p ma'noli so'zlarda ma'nolardan biri

to'g'ri ma'no (yoki o'z ma'no), qolganlari esa ko'chma ma'no bo'ladi. Ko'chma ma'nolar nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa to'g'ri ma'nosi asosiy ma'no bo'lib qoladi. Masalan, *tosh* so'zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, "qattiq jism" ma'nosini anglatadi.

Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar (neologizmlar) ham davrlar o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

So'zning ko'p ma'noliligini o'rganish, avvalo, leksik uslubiyat uchun muhim rol o'ynaydi. Chunki, bu so'zning o'zida turli xil ma'noning bo'lishi uchun og'zaki va yozma nutqda qo'llashda uslubiy bo'yog'iga, ma'nosiga e'tibor berishni talab qiladi. Shu bosidan ma'no ko'chish ham sinonimiya, omonimiya va boshqa leksik vositalar singari hazil, mutoyiba, kulgi va turli so'z o'yinlarini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosi to'qnashtiriladi, natijada kutilmagan yangi ma'no hosil bo'ladi. So'zlarning ana shu nozik ma'no ottenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo'llaniladi.

Ko'chimlar ko'proq og'zaki nutq uchun xarakterli hodisadir. Ulardan zo'rma-zo'raki foydalanib bo'lmaydi, nutqni buzishi mumkin. Ularga yozuvchi yoki notiq zarurat tug'ilgandagina murojaat qilishi lozim. Aks holda ular badiiy asar qimmatini oshirish o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ta'lim tizimida "Ona tili" darslarida ma'no ko'chishining nima asosda ro'yobga chiqishiga ko'ra:

1. Metafora
2. Metonimiya
3. Sinekdoxa
4. Vazifadoshlik singari turlari o'rganiladi.

Nutqimizda eng keng tarqalgan ma'no ko'chish usuli metaforadir.

Metafora (yunoncha *metaphora* — ko'chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir.

Masalan, *tandirning og'zi* birikmasida *og'iz* so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik turli asosda bo'lishi mumkin:

1. Ikki predmet o'rtasidagi shakliy o'xshashlik. Masalan, *odam qulog'i* va *qozon qulog'i*.
2. Ikki predmet qayerda joylashishi bo'yicha o'xshashlik. Masalan, *itning dumi*, *samolyot dumi* va boshqalar.

Nutq jarayonida metaforalardan o'rinli foydalanish nutqimizni ta'sirchan, jozibali qiladi. So'zlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.

Metonimiya – grekcha “metonimiya” so'zidan olingan bo'lib, boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi. Metaforaga o'xshash ma'no ko'chishning asosiy turlaridan bo'lgan metonimiya ham so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi.

Metaforada bir-birilariga o'xshash predmat va ularning belgilari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinish yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo umuman bir-biridan farq qiluvchi predmatlar belgilari solishtiriladi. Masalan: *Ra'no Anvarga xat yozib yuboradi va gapning qolganini Fuzuliydan o'qirsiz, deydi.* (A. Qodiriy. “Mehrobdan chayon”). Bunda muallifning nomi uning asari o'rniga ko'chgan nomi bilan qo'llanadi.

Yoki *“Darsdan so'ng A. Qodiriyning olish uchun do'stimning uyiga bordim”* gapida ham asar muallif nomi bilan qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin.

Metonimiyada ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, umuman bir-biridan farq qiluvchi predmetlar belgilari solishtiriladi. Metonimiya ancha murakkab ma'no ko'chish hodisasi bo'lib, ayni zamonda ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga jalb etib keladi. Bu ma'no ko'chishiga tilshunoslar ko'p ma'noli so'zlardagi semema va semalarning xarakterli xususiyatlarini ochish, ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalar tahlili nuqtai nazaridan yondashsalar, adabiyotshunoslar esa polisemantik so'zlardagi tasvirning turli vositalar (o'xshashlik, sifatlash, majoz istiora)ni yuzaga keltiruvchi omillar deb biladilar. Har ikkala yo'nalishda ham maqsad bitta, u ham bo'lsa, so'zning ko'p ma'noligi va undagi uslubiy imkoniyatlarni o'rganishdir.

Umuman metonimiyada biror narsa ichidagi predmetni ma'nosi, o'sha narsaga o'tkaziladi. Masalan: Bir piyola ichdim. Bir tovoq tushurdim, "piyola" choy ma'nosida, tovoq esa "osh" ma'nosida keltirilgan. Yoki muallif nomi asar o'rnida qo'llanilishi mumkin: Navoiyni o'qidim, Oybekni o'qidim; yana harakat natijasi shu harakatni bajaruvchi qurol nomi bilan almashtiriladi. Masalan: *Mazkur gaplarning hammasi ustoz S. Ayniy qalamiga tegishli*. Yoki yana:

Besh asrkim nazmiy saroyini

Titratadi zanjirband bir sher

Temur tig'i yetmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher.

Biror narsani u yasalgan material bilan almashtirish mumkin:

Endi senga tismol aytay bir avlon

O'lmas po'lat berdi, yengiga qalqon.

Sinekdoxa so'zi yunoncha "synecdoche" – nazarda tutish so'zidan olingan bo'lib, qism orqali butunni, butun orqali esa qismni ifodalash sanaladi. Sinekdoxa usuli asosida ham predmetlar orasidagi aloqadorlik yotadi. Shu bois unga metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida baho berish mumkin, lekin bu aloqadorlikda butun bo'lak munosabati doimiy yaqqol ko'rinib turadi. Misollarga e'tibor beraylik: *Tuyoq boqmoq (mol yoki qo'y boqmoq), tirnoqqa zor (farzandga)* kabi ko'rinishlarda qism orqali butun ifodalanyapti. *O'zbekiston yutdi, Farg'ona keldi* iboralarida esa bir kishi yoki guruh nazarda tutiladi. Bunday o'rinlarda esa butun orqali qism ifodalanadi.

Vazifadoshlik, ya'ni funksional ko'chish usulining mohiyati shundaki, ma'no ikki predmet o'rtasidagi vazifaviy o'xshashlik asosida ko'chiriladi. Masalan: oyoq insoning tik turishi uchun xizmat qiladigan anatomik organi. *Stulning oyog'i* deb ataganimizda ham mana shu funksiyaga asoslaniladi. *Odamning ko'zi – derazaning ko'zi* (har ikkalasi ko'rish uchun), *qushning qanoti – samolyotning qanoti* (har ikkalasi uchish uchun).

Soʻzning tasvirlanayotgan voqelikning mohiyatini ochish uchun turli maʼnolarda tovlanishi, yaʼni soʻzlarning koʻchma maʼnolarda qoʻllanilishi ilmiy jihatdan, uni oʻqitish usullari esa metodik jihatdan maxsus oʻrganilgan.

Metafora haqida B. Raxmonova shunday deydi: “badiiy asar tilida leksemalarning koʻp maʼnoli boʻlib kelishiga olib kelgan asosiy hodisa metaforadir. Metafora koʻchma maʼno hosil qilishning eng keng tarqalgan usuli sifatida badiiy nutqning, nutq badiiyatining muhim omillaridan hisoblanadi. Semema tarkibidagi semalar asosida nutqda koʻchma maʼno hosil qilish bunday tabiatga ega boʻlmagan deyarli barcha soʻzlar uchun hosdir. Hatto yordamchi soʻzlar ham vazifa semalarini keskin oʻzgartirib koʻchma maʼnolar hosil qilishi mumkin. “Agar”ni “magar”ga kuyov qilsalar, tugʻilgan bir oʻgʻil, oti “koshki””³

Metonimiya hodisasi koʻpgina olimlar tomonidan oʻrganilgan va turli xil tasniflar berilgan. Masalan, olim E. Qilichev oʻzining “Badiiy tasvirning leksik vositalari” kitobida metonimiyaga quyidagicha taʼrif bergan: “Metonimiya polisemiyaning bir koʻrinishidir. Predmet yoki hodisalarni anglatuvchi soʻzlar metonimiya yoʻli bilan yangi koʻchma maʼno anglatar ekan, bunda bir-biridan tubdan farq qiluvchi va butunlay boshqa-boshqa tushunchalarni ifodalovchi predmet-narsa va hodisalarning makon va zamonda oʻzaro ichki va tashqi jihatdan yaqinligi, bogʻliqligi, aloqadorligi koʻzda tutiladi. Yaʼni predmet yoki hodisalarni makon yoki zamondagi oʻzaro doimiy bogʻlanishlari asosida birining nomi ikkinchisiga koʻchiriladi”⁴. Shuningdek, ushbu asarda metonimiyaning qiyosga asoslanishi, faqat metaforada bir-biriga oʻxshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi koʻrinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi boʻlsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga oʻxshamagan) predmetlarning belgilari chogʻishtirilishi haqidagi fikrlar ham mavjud.

Metonimiya badiiy adabiyotda eng koʻp qoʻllanilgan badiiy vosita. Olimlardan U. Tursunov, J. Muxtorov oʻzlarining “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligida

³ Раҳмонова Б., Файзиёва Д., Жабборкулова А. Насрий матнда метафоранинг ўрни//Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Т.: 2009. 67-б.

⁴ Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Oʻzbek tili. – T.: Oʻqituvchi, 1970. 45-b

metonimiyani bir qancha turlarga bo‘lganlar. Shulardan biri sinekdoxadir. “Sinekdoxada qism va butun munosabati asosida ma’no ko‘chiriladi. U metonimiyaning bir ko‘rinishidir”⁵.

Olim Mirtojdiyevning yozishicha, “Tildagi polisemiya hodisasi juda qadimdan o‘limlar diqqatini o‘ziga jalb qilib keldi. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat nuqtai nazaridan o‘rganishdi. Tilchilarimizning qayd etishicha, bu masala bilan Xitoy va Hind olimlari, eramizning boshlarida esa yunonlar ham shug‘ullanishgan ekan. So‘zlarning turli ma’nolarda tovlanishi qadimgi turkiy til boyliklariga bag‘ishlangan asarlarda ham o‘rganilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”, Alisher Navoiyning “Muhabbat-ul lug‘atayn” asarlarida bunday hodisani kuzatish mumkin”⁶.

So‘zlarning rang-barang ma’nolarda kelishi adabiy matnlarni tahlil etish jarayonida aniqlanadi. So‘zning o‘z ma’nosidan boshqa ma’noda qo‘llanilishi tilshunoslik va adabiyotshunoslikka trop atamasi bilan yuritilgan. Badiiy tildagi bunday hodisani R. Qo‘ng‘urov shunday izohlaydi: “Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarni shu maqsadda, umuman ko‘chma ma’noda ishlatishga troplar deyiladi”⁷.

Jahon tilshunosligida ham ko‘chma ma’noni hosil qiluvchi so‘zlarni tasniflashga doir bir qancha qarashlar mavjud. Masalan, fransuz tilshunosi J. Maruzo ko‘chma ma’noli so‘zlarni uch turga metafora, metonimiya, sinekdoxaga ajratadi⁸. Rus tilshunosi L. A. Buxalovskiy esa ko‘chma ma’no hosil qiluvchi hodisani olti turga bo‘lgan: metafora, vazifadoshlik, emotsionallik, metonimiya, xalq etimologiyasi sifatida, aloqadorlik. L. A. Buxalovskiy sinekdoxani metonimiyaning bir ko‘rinishi deb hisoblaydi⁹.

Nutqning ta’sirchanligi nutq madaniyatining eng muhim sifatlaridan biri bo‘lib, nutqning og‘zaki va yozma ko‘rinishlarida namoyon bo‘lib boradi. Bugungi

⁵ Tursunov U., Muxtorov J. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslik. – Toshkent. 1965. 125-b.

⁶ Mirtojdiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. – T.: Fan. 69-b.

⁷ Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent. Fan, 1977. 54-b.

⁸ Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004. – С. 23

⁹ Бухаловский Л. А. Введение в языкознание. М.: Учпедгиз, 1954. – С. 76

kunda ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, ta'lim jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarning yozma nutq madaniyatini rivojlantirish, nutqning aniqligi, uzviyligi, ta'sirchanligi kabi sifatlarini o'quvchida shakllantirishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Ma'no ko'chish turlaridan foydalanishning og'zaki va yozma nutqni shakllantirishdagi ahamiyati muhim ekanligini hisobga olgan holda, L. S. Vigotskiy "Og'zaki va yozma nutqning orasida juda katta farq mavjud" deya ta'kidlaydi. Chunki "birinchidan, yozma nutq o'gzaki nutqga qaraganda mavhumroqdir, ikkinchidan esa, og'zaki nutqdagi odatiy motivatsiyaning o'zgarishi, ya'ni intonatsiya va suhbatdoshning mavjud emasligi natijasida o'quvchi yozma nutqda asosiy e'tiborni nutqning o'ziga emas, balki so'zlar ortidagi yashirin ma'noga qaratishi lozim bo'ladi"¹⁰. Shuning uchun ham yozma nutqni ta'sirchanlik va mazmundorlik bilan boyitish o'quvchilar uchun bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, o'quvchi yozma nutqni shakllantirayotganda nutqning jozibadorligi va ta'sirchanligini oshiruvchi vositalar haqidagi nazariy ma'lumotni bilibgina qolmasdan, uni qanday, qay usulda matnga kiritish yo'llari haqida ham bosh qotirishi kerak bo'ladi.

Ma'no ko'chish turlarini o'rganish nutq madaniyatini rivojlantirish bilan birga, o'quvchi nutqining boy bo'lishiga ham o'z ta'sirini o'tkazishi haqida "Ona tili o'qitish metodikasi"¹¹ darsligida "...o'zbek xalqining qochiriq so'zlari va ko'chma ma'noli so'zlaridan, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag'a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so'roq gaplardan foydalanishida namoyon bo'ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go'zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi" mazmunidagi fikrlar mavjud.

¹⁰ Выготский Л. С. Мышление и речь. М., 2007. – С. 98.

¹¹ Gulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012. 87-b.

B. To‘xliyev boshchiligida yaratilgan “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”¹² darsligida ma’no ko‘chish turlarini o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta topshiriqlar berilgan bo‘lib, unda “Izohli kurs” ni o‘rganishda – o‘z va ko‘chma ma’noli so‘zlar orasidagi ma’noviy munosabatlar, ma’no guruhleri (uyadosh, ma’nodosh, zid ma’noli so‘zlar kabi)ning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi ustida ishlash, til sathlarini bog‘lab o‘rganish orqali lug‘at xazinasini oshirish va boyitishga imkon beradi” degan fikrlarni uchratamiz.

Shuningdek, T.Yusupovanning “Leksikologiyani innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘rgatish”¹³ nomli maqolasida ham metafora va metonimiyaning uslubiy xususiyatlarini o‘qitishni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo‘yicha bir qancha usul va tavsiyalar berib o‘tilgan.

Ma’no ko‘chish turlarini o‘rgatishda boshqa fanlar bilan aloqadorlikni, ya’ni integratsiyani yuzaga chiqarishda bir necha usullardan foydalanish haqidagi fikrlarni M. Umurzoqovanning “Metafora va uning uslubiy xususiyatlarini o‘rgatish”¹⁴ nomli maqolasida uchratish mumkin. Muallif ushbu maqolasida “Badiiylikni oshirishda an’anaviy metaforalardan ko‘ra xususiy-muallif metaforalarning ahamiyati katta ekanligini aytib o‘tish, o‘quvchilarga hayvon nomlari, o‘simlik nomlari asosidagi ko‘chishlar haqida ham ma’lumot berib o‘tish lozim”ligi haqida aytadi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ma’no ko‘chish yo‘llari ilmiy jihatdan jahon va o‘zbek tilshunoslari tomonidan yetarlicha o‘rganilgan. Mana shu o‘rganilgan nazariy ma’lumotlar asosida, shuningdek o‘zbek tili o‘qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda ma’no ko‘chish turlarining nutqdagi ahamiyatini o‘quvchilarga tushuntirish, o‘quvchilar nutqida ma’no ko‘chish turlaridan foydalanishni faollashtirish uchun ushbu mavzu bilan

¹² To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. 45-b

¹³ Yusupova T. Leksikologiyani innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘rgatish// Ўзбек тили ўқитиш методикасининг долзарб масалалари. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети. – Тошкент. 2017. 74-b

¹⁴ Umurzoqova M., Xo‘jamberdiyeva Sh. Metafora va uning uslubiy xususiyatlarini o‘rgatish // Ўзбекистон: Тил ва маданият. III серия. Ўзбек тили таълими. – Тошкент, 2017. 98-b.

bog‘liq bo‘lgan bir qancha innovatsion usullarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish o‘zbek tili o‘qitish metodikasi fanida alohida ishlanishi kerak bo‘lgan masalalardan biri sanaladi.

1.2. O‘quvchilarning nutq madaniyatini ma’no ko‘chish turlari orqali rivojlantirish imkoniyatlari yuzasidan dastur va darsliklar tahlili

Ta’lim jarayonida ona tili darslaridagi asosiy e’tibor o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratiladi. Mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, o‘z fikr-mulohazalarini erkin, ta’sirchan yetkazib berishda ona tili darslarining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Tilshunoslikning “Leksikologiya” bo‘limi so‘z va uning ma’nodoshlarini o‘rganish bilan shug‘ullanar ekan, ushbu bo‘lim o‘quvchi so‘z boyligini oshirish va boyitish bo‘yicha katta imkoniyatlarga egadir.

Leksikologiyani o‘rganish jarayonida so‘zning grammatik hamda lug‘aviy, o‘z va ko‘chma ma’nolari, bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar, umumxalq ko‘p ishlatadigan va kam ishlatadigan so‘zlar, tarixiy so‘zlar, dialektizimlar, neologizmlar, kasb-hunarga oid so‘zlar, atamalar, ibora va tasviriy ifodalar kabi hodisalar bilan tanishiladi.

O‘quvchilar nutqining go‘zalligi, izchilligi, ta’sirchanligini oshirishda ko‘chma ma’noli so‘zlarning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligini inobatga olgan holda ona tili o‘qitish jarayonida dasturlar, so‘z va uning ko‘chma ma’nolari, ma’no ko‘chish turlarini o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular, darsliklarda ushbu mavzuga tegishli bo‘lgan mashq va topshiriqlar o‘rganib chiqildi.

2010-yil 1-iyuldagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari hamda oliy ta’limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi qarorga muvofiq yaratilgan “Ona tili fanidan Davlat ta’lim standartlari:

uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dastur"¹⁵ida berilishicha o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talab sifatida 5-sinf o'quvchilari "Leksikologiya" bo'limini o'rganish davomida so'zning o'z va ko'chma ma'nosi haqida ma'lumotga ega bo'lishi, so'zning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanilishini borliqni aniq va ramziy ifodalash vositasi sifatida tushuna olishi lozimligi belgilgan.

Shuningdek, ushbu DTSda 5-sinf o'quvchilari "Leksikologiya" bo'limini o'rganar ekanlar, ushbu bo'limda so'zning o'z va ko'chma ma'nosi, so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini qiyoslash, berilgan so'z birikmalarida so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini aniqlay olishlari lozim bo'ladi. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari yuzasidan xulosa chiqarib, nasriy va she'riy matnlarni o'qish davomida undan so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini aniqlay olishlari, so'zlarni o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llab gaplar tuza olish malakasini egallagan bo'lishi kerak.

2017-yilda ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuv asosida qabul qilingan Davlat ta'lim standarti¹⁶da esa umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi quyidagicha belgilangan:

- o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;
- o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;
- **ona tilining keng imkoniyatlaridan** unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni

¹⁵ Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti: Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.

¹⁶ Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o'zbek tili (5-9 sinflar). – Toshkent. 2016. 24-b.

shakllantirishdan iborat.

Ushbu vazifani amalga oshirishda, ya'ni o'z fikrini ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishda, o'quvchilardagi grammatikaga oid bo'lgan bilimlarni rivojlantirishda ma'no ko'chish turlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi malaka talablari qo'yilgan:

Lingvistik kompetensiya

A2

O'zlashtirilgan leksik birliklarni gap tarkibida qo'llay oladi. Fonetik, leksik, grammatik tahlil qila oladi.

A2+

Leksik birliklarning ma'nosini farqlashda lug'atlardan unumli foydalana oladi.

Lingvistik kompetensiya

B1, B1+

Leksika: so'zlarning ko'chma ma'nolari, uslubiy xususiyatlari va atamalarni farqlay oladi, ulardan nutqda to'g'ri foydalana oladi. O'zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyish manbalarini izohlay oladi.

O'quvchilar yuqorida qayd etilgan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarni ona tili va adabiyot darslarida egallab boradilar. Shu bois, darsliklardagi ma'no ko'chish yo'llari bilan bog'liq bo'lgan mavzular, ulardagi mashq va topshiriqlar tizimi o'rganildi.

So'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqidagi dastlabki ma'lumot 5-sinf "Ona tili" darsligida berilgan, ma'no ko'chish turlari haqidagi ma'lumot esa akademik litseyning 2-bosqichlari uchun yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan "Ona tili va adabiyot" darsligida berilgan.

5-sinf "Ona tili"¹⁷ darsligida "Leksikologiya" bo'limida "So'zning o'z va ko'chma ma'nolari" mavzusiga 1 soat vaqt ajratilgan bo'lib, ushbu mavzuni

¹⁷ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan 4-nashri. – T.: Ma'naviyat, 2015. – 224 b.

o'rganish jarayonida o'quvchilar so'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash ma'nosi o'z ma'nosi ekanligi, so'zning nutqda boshqa so'zlarga bog'lanib hosil qiladigan yondosh ma'nosi ko'chma ma'no hisoblanishi haqidagi nazariy ma'lumotga ega bo'ladilar. Shuningdek, o'z va ko'chma ma'nolar o'zaro birikib ko'p ma'noli so'zni hosil qilishi haqidagi axborot bilan ham aynan shu darsda tanishadilar.

Ushbu darslikda so'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqidagi bilimlarni yetkazib berish va mustahkamlashga oid berilgan mashq va topshiriqlar tizimi o'rganilganda so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini o'zaro solishtirish, berilgan gaplardagi so'zlarni qaysi ma'noda qo'llanilganligiga ko'ra o'z va ko'chma ma'noli so'zlar guruhiga ajratish, berilgan so'zlarni o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llab gap tuzish, ular o'rtasidagi ma'no tavofutlarini aniqlash kabi mashq va topshiriqlar bilan tanishdik.

5-sinfda so'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqidagi ma'lumotlar berib bo'lingach, o'quvchilar akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ma'no ko'chish turlari haqidagi nazariy ma'lumot bilan tanishadilar.

A. Rafiyev va N. G'ulomovalarning akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan "Ona tili va adabiyot"¹⁸ darsligida so'z ma'nosining taraqqiyoti haqidagi fikrlar berilgan bo'lib, tilimizdagi mavjud so'zlar ma'nolarining o'sishi ma'no ko'chishi, ma'noning kengayishi va torayishi tarzida ro'y berishi haqida ma'lumot berilgan va so'zlarda ma'no ko'chishi: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi hodisalarni o'z ichiga olishi aytib o'tilgan.

Ushbu darslikda mavzu bilan bog'liq holda berilgan mashq va topshiriqlar tizimi o'rganilganda esa darslikda she'riy parchalardagi ma'no ko'chish hodisasini aniqlash va tavsiflash, ko'chma ma'noli so'zlarning ma'nolarini farqlab ko'rsatish, bu so'zlarni badiiy nutqda qanday maqsadda qo'llanilganligini tushuntirish, berilgan matnlar tarkibidan iboralar va g'ayritabiiy so'zlarni topish, ularning ma'nolari va qo'llanilish sabablarini izohlash kabi mashq va topshiriqlarga

¹⁸ Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. 4-nashri.– Toshkent.: Sharq, 2010. 123-b.

ko‘zimiz tushdi.

Shuningdek, A. Nurmonov boshchiligidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 2-bosqichi uchun yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”¹⁹ darsligida ma’no ko‘chish turlari bilan bog‘liq bo‘lgan “Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar”, “Ko‘chma ma’nolar va ularning turlari”, “Metafora va metonimiya hamda ularning uslubiy xususiyatlari”, “Sinekdoxa va vazifadoshlik hamda ularning uslubiy xususiyatlari” kabi mavzular berilganligining guvohi bo‘ldik.

Ushbu darslikdagi mashq va topshiriqlar o‘rganib chiqildi. Unda ko‘p ma’noli so‘zga nisbatan polisemantik so‘z iborasi qo‘llanilgan bo‘lib, berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarida qo‘llab gaplar tuzish, ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan so‘zlarni aniqlash va ma’no ko‘chish turini izohlash, ma’no ko‘chish turlariga badiiy asarlardan misollar topish kabi mashq va topshiriqlar berilgan.

Ushbu darslikda mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi mashqlar e’tiborimizni tortdi:

64-mashq. Ko‘chiring. “*Palak*” so‘zining bir necha xil ma’nolari borligini bilib oling. Siz ham uyingizda *til, ter* kabi so‘zlarning ma’nolarini ana shunday izohlab keling.

1. *Palak. Ma’lum bir urug‘dan ko‘karib chiqib, yer yuzalab o‘sib, gullab hosil beradigan poliz o‘simligining tanasini bildiradi: qovun palak, tarvuz palak, bodring palak.*

... *So‘lg‘in palaklarda o‘smay qolib ketgan xomaklar yiltillab qolar, goh surmaday qorayib ko‘rinar edi. (A. Muxtor)*

2. *Palak. Polizchilar nutqida ba’zan qovun yoki handalak urug‘i tushunchasida ham qo‘llanadi. Masalan: To‘rt egat palak ekdim.*

3. *Palak. Xalqimiz urf-odatiga ko‘ra, qizlarni kuyovga uzatish uchun gul (kashta) ipakli matolar tayyorlanadi.*

Iblisni rahbar deb qarshi oldilar,

¹⁹ Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: Ilm Ziyoyi, 2010. – 223 b.

Balki, sayladilar undan ham ortiq.

Poyiga ipakdan palak soldilar,

So 'ng yuksak bir taxtni etdilar tortiq.

(A. Oripov)

4. *Palak. «Parvoyi palak» iborasida o'z ishiga mas'uliyatsizlik, e'tiborsizlik bilan qarash, beg'amlik ma'nolari tushuniladi.*

Atrofda bo'layotgan voqealarga Mo'ydinning parvoyi palak edi.

5. *O'xshatish ma'nosida ham qo'llaniladi. «Bir palakdan har xil xamak chiqadi deganlari rost ekan-da», dedi so'fi yonidagilarga qarab.*

67- mashq. “Qovunlar payrovi”ni o'qing. Ko'chma ma'noda kelgan so'zlarni aniqlab, ularga tavsif bering.

Odiljon:

— *Qovun tanlashda tashqi ko'rinishiga qarab tanlamaslik kerak ekan. Yaxshi qovun deb olsam, pirsildoq chiqib qoldi.*

Muhammadjon:

— *Yangi qovun navlarini yaratayotgan mirishkor dehqonlarimizga rahmat, oshqovoqqa o'xshaganini oluvdim, obinovvot ekan.*

Odiljon:

— *Bu safar qovun tanlashda adashmagan ekanman, oq qovun deb olsam, eski chopon chiqib qoldi.*

Muhammadjon:

— *O'zi kichkina-yu, nimaga tosh bosyapti desam, bo'rikallaga o'xshaydi.*

Odiljon:

— *Rahmat, qovun bahonasida ozgina kulishib ham oldik. Xalqimizning dasturxoniga shirin-shakar qovunlarni yetkazib berayotgan dehqonlarimizning umri boqiy bo'lsin.*

Ko'rib chiqilgan ma'lumotlardan shu narsa aniq bo'ldiki, ma'no ko'chish turlarini o'rganish maqsadida o'quvchilar 5-sinfda so'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqidagi bilimlar bilan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda

ma'no ko'chish turlari bilan tanishar ekanlar. Darsliklarda ushbu mavzular bilan bog'liq mashq va topshiriqlar berilgan bo'lib, ularni har bir o'qituvchi o'zining ijodiy yondashuvi yordamida boyitgan holda tashkillashtirishi mumkin. Ayniqsa, biz yuqorida alohida ko'rsatgan mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi ona tilimizning naqadar boy ekanligiga, nutqimizning jozibali va ta'sirchanligini oshirishda ma'no ko'chish hodisasining ishtiroki qay darajada muhim ekanligiga yana bir bor guvoh bo'ladilar. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodi namunalari yordamida darslarni tashkillashtirish yordamida o'quvchilar xalqimizning azal-azaldan so'zga chechan, so'zamol xalq ekanligini ko'rib, ushbu so'zamollikni yuzaga keltirishda ma'no ko'chish turlarining juda katta ahamiyatga ega ekanligini bilib oladilar.

II BOB. MA'NO KO'CHISH TURLARINI O'RGATISH METODIKASI

2.1. Ona tili darslarida ma'no ko'chish turlarini o'rganish orqali nutq madaniyatini rivojlantirishning mazmuni

Ona tili o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarga ona tilidagi so'zning ma'no va mohiyatini o'rgatishdan, so'zni his etishga yo'llashdan iborat. Bunda so'z ma'nolarini o'zlashtirish, uni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash malakasining hosil qilinishi alohida o'rin tutadi.

Ko'p ma'noli so'zlar, ma'nolarning to'g'ri va ko'chma ma'nolarga bo'linishi tilshunoslik fanidan bizga ma'lum. Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir jihatga ko'ra boshqa bir narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llanilishi ko'p ma'noli so'zlarning vujudga kelishi haqidagi nazariy ma'lumotlar bilan ham yuqorida tanishib o'tdik.

Ushbu bobda ma'no ko'chish hodisasining og'zaki va yozma nutqdagi ahamiyati o'rganiladi. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi ma'no ko'chish turlarini nutqda qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad va uning ta'siri ma'no ko'chish turlarining uslubiy ahamiyatini o'rganish orqali ochib beriladi.

Metaforaning uslubiy ahamiyati shundan iboratki, nutq jarayonida undan o'rinli foydalanish nutqimizni ta'sirchan va jozibali bo'lishiga sabab bo'ladi. Metafora nutqning ta'sirchanligiga o'zining ta'sirini ko'rsatishini bir qancha misollar yordamida ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, odamning burni – geografik burun, ko'ylakning etagi – daryoning etagi kabi. Bu o'rinda predmatlarning tashqi o'xshashliklariga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, ularning ichki o'xshashliklari, vazifaviy bir xilliklari asosida ham ma'no ko'chiriladi. Misol uchun: *toza ko'ylak – toza odam, to'g'ri yo'l – to'g'ri gap, do'stim keldi – suv keldi* kabilarni keltirish mumkin. Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U tilshunoslikda qayd etilishicha,

hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila referatları o'zaro o'xshash kelishiga asoslangan ko'rinishidir. Bu izoh deyarli tilshunoslar tomonidan tan olingan.²⁰

Metafora va uning uslubiy xususiyatlarini o'rganish jarayonida badiiy asarlardan olingan misollarni tahlil qilish o'quvchilarni o'ylashga, mushohada yuritishga o'rgatadi.

Senga nimadir aytmoqchi bo'lar,

Sog'inchdan titranib mangulik labi. (U. Azim)

Novdalarning titroq tanida

Sirg'anadi shamolning qo'li. (U. Azim)

Men ko'cha kezaman. Yog'a boshlar qor

Oppoq qo'lchalarin yelkamga tashlab. (U. Azim)

Keltirilgan misollardagi metaforalar asosan tashqi o'xshashlik asosida inson a'zolarining nomlarining tabiat hodisalariga ko'chishi natijasida hosil bo'lgan bo'lib, ularni topish, badiiylikni ta'minlashdagi o'rnining nimadaligini aniqlash o'quvchilarga topshiriq sifatida beriladi, ularning fikrlari tinglanadi. Bunday topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning nutqini oshirishga xizmat qiladi. Badiiylikni oshirishda an'anaviy metaforalardan ko'ra xususiy-muallif metaforalarning ahamiyati katta ekanligini aytib o'tish, o'quvchilarga hayvon nomlari, o'simlik nomlari asosidagi ko'chishlar haqida ham ma'lumot berib o'tish lozim.

Metaforaning uslubiy jihatlarini quyidagi she'riy parchada ham ko'rishimiz mumkin:

Barcha haq ishida bo'ling salomat

Yog'sa har yondan tavqi-malomat

Ezgu ishingizni ettiring davom

Yaratgan qo'llagay sizlarni mudom.

Kim sherik bor desa agar Ollohga,

Shubhasiz, botgaydir katta gunohga.

Nohaqdan bir inson qonini to'kmoq

²⁰ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз. 2010.

*Gunoh dengiziga baayni cho'kmoq.
Ota-onasiga kimki bo'lsa oq,
Bu ham og'ir gunoh bo'lgay mutloq.
Agarda yolg'ondan bersa guvohlik
Uning ham gunohin kechirmas Holiq.
Shu to'rtta gunohdan kim bo'lsa forig'
Bilingki, ularning manglayi yorug'.*

Yuqoridagi she'riy parchadan quyidagi ma'no ko'chish turlarini aniqlash mumkin.

1. *“tavqi-malomat yog'moq”* – bu metafora usulida ma'no ko'chishi hisoblanadi. Tavqi-malomatda qolish, uning haddan ziyoz ko'p bo'lishi yomg'ir yog'ishiga qiyosan ishlatilyapti.

2. *“gunohga botmoq”* iborasi bo'lsa juda ko'p katta gunohda qolish ma'nosini beruvchi *“botmoq”* so'zi bilan berilyapti, bu ham metafora usulida ma'no ko'chishi hisoblanadi.

3. *“og'ir gunoh”* gunohning kattaligiga qarab, uni ifodalash uchun *“og'ir”* so'zidan foydalanilyapti, bu ham metafora usulida ma'no ko'chishi hisoblanadi.

Yuqoridagi she'riy parchadan olingan misollardan ko'rishimiz mumkinki, metafora ham asarning ta'sirchan va ekspressivligi uchun katta xizmat qiladi. Metafordan unumli va to'g'ri foydalanish uslubiy jihatdan juda katta ahamiyat kasb etadi.

Metafora kabi metanomiya ham o'quvchi nutqining ta'sirchan, hissiy bo'yoqlarga boy bo'lishida juda muhim vosita sanaladi.

Navoiyni oldim qo'limga deydi. Navoiyni qo'lga olib bo'ladimi? U buyum emas-ku qo'lga ko'taradigan!? *Bedilni o'qir edim* deydi. Bedil kitob emas-ku!? *Samovarda osh yedik* deydi. Samovar ustiga o'tirib osh yeb ko'ring-chi, kuyib qolasiz...

Hojiboy Tojiboyevning *“O'zbekning gapi qiziq”* ruknidagi bunday ichakuzdi hangomalarini ko'p eshitgansiz va huzur qilib kulgansiz, lekin bu hangomalardan

nima uchun kulishimiz sababini bilasizmi? Hojiboy Tojiboyevning mahorati shundaki, u soʻzning toʻgʻri va koʻchma maʼnolarini anglagan holda koʻchma maʼnolarda qoʻllangan soʻzlardan toʻgʻri va oʻrinli foydalana oladi. Shuning uchun ham uning hangomalariga hammamiz miriqib kulamiz. Yuqoridagi keltirilgan gaplar tarkibida kulgi qoʻzgʻatish uchun asos boʻlgan soʻzlarning barchasi koʻchma maʼnoning bir turi metonimiyaga asoslangan.

Metonimiya orqali koʻchma maʼno hosil qilish fikrimizni loʻnda, ifodali, taʼsirchan bayon qilishning bir yoʻli sanaladi.

Bulardan tashqari metonimiyaga yana quyidagicha misollar keltirishimiz mumkin. Masalan: 1. “Rossiya”ga qanday borsam boʻladi? (bekatdagi yoʻlovchining murojaati); 2. Ichak-chovogʻim tugadi, endi kalla sotaman. (qassobning gapidan); 3. Mabodo, “Besh bolali yigitcha” kelmadimi? (kitobxonning sotuvchiga bergan savolidan); 4. Navbatim sumka koʻtargan “jinsi”dan keyin. (xaridorning javobi).

Maʼno koʻchish turlarining yana bir turi *sinekdoxa* haqida gap borar ekan, uning nutqimizning yanada taʼsircha va boʻyoqdor boʻlishidagi taʼsirini inkor etib boʻlmaydi.

— *Farzandi bormi?*

— *Tinoqqa zor.*

Yuqoridagi dialogda tinglovchi soʻzlovchining savoliga “Yoʻq!” deb javob berishi ham mumkin edi, lekin u “*tirnoqqa zor*” iborasini ishlatishni maʼqul koʻrdi. Bu bilan suhbat mavzusiga aylangan shaxsning farzandi yoʻqligini bayon qilish bilangina cheklanib qolmasdan, uning farzand koʻrishga tashnaligini ham alohida taʼkidlab koʻrsatdi.

Nima uchun *farzand* yoki *bola* oʻrniga *tirnoq* soʻzi ishlatilyapti? Tirnoq bolaning bir kichkinagina aʼzosi. Shu aʼzoga ham zorligi, tashna ekanligini bildirish bilan bolaga zor ekanligi boʻrttirib koʻrsatilyapti.

Koʻchalarni chiroqlar yop-yorugʻ qilib turibdi. Chiroq piligini pasaytirdi.

Yuqoridagi ikki gapda qoʻllanilgan chiroq soʻzining maʼnosiga eʼtibor bersangiz, u bir xil vazifa bajaruvchi ikkita bir-biriga oʻxshamaydigan narsalarni

ifodalayotganining guvohi bo‘lasiz. Birinchisida “elektr toki orqali yorituvchi noksimon (lampochka) yoki tayoqsimon asbob”ni, ikkinchisida esa “kerosinga pilik solish vositasi bilan yorituvchi, asos va shisha qismlardan tashkil topgan asbob”ni bildiradi.

Bu asboblar shakliga ko‘ra bir-biriga o‘xshamaydi, makon va zamonda ularning aloqadorligi ham yo‘q, lekin har ikkisi yoritish vazifasini bajaradi. Ana shu vazifaviy bir xillikka ko‘ra ilgari yog‘ga pilik tekkizish orqali yoritiladigan shishasiz, ochiq asbob nomi keyinchalik asos qismga shisha o‘rnatilgan yoritgich asbobni, keyinroq esa elektr tokidan foydalanishga o‘tilgandan so‘ng lampochkalarni ham ifodalash uchun qo‘llaniladi. Natijada chiroq so‘zi bir-biriga o‘xshamaydigan xilma-xil yorituvchi vositalarga nisbatan qo‘llanila boshlandi.

Vazifadoshlik deb muayyan narsaning vazifasini ikkinchi bir narsa bajarishi natijasida avvalgisining nomi bilan keyingilarini ham ifodalashdir.

Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so‘zlarni bilish, ularning ilgari qanday shakldagi narsalarni ifodalaganligini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordam beradi.

Ma’no ko‘chishining vazifadoshlik kabi turi ham nutqimizning ta’sirchanligini oshirishda, ifodali, jozibali bo‘lishida katta ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning nutqining go‘zalligi, boyligi, ta’sirchanligi asosan ularning lug‘at boyligi bilan bog‘liq. Boshlang‘ich sinflardan boshlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlarigacha bo‘lgan davrda o‘quvchilar o‘rganadigan so‘zlar lug‘ati kengaytirilib boriladi. Bunda bir qator xususiyatlar e’tiborga olinadi. Xususan:

- So‘zlarning amaliy ahamiyati, ya’ni butun ta’lim jarayoni uchun ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlar;
- So‘zlarning amaliyotda qo‘llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo‘llanishi;
- So‘z ma’nosining to‘la tushunilishi, o‘rinli va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatilishi nazarda tutiladi.

Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosini oʻrganish ham ushbu xususiyatlarni yuzaga chiqarishda muhim mavzu hisoblanib, uni oʻrganish jarayonini quyidagilarni eʼtiborga olgan holda olib borish mumkin.

Topshiriq: quyidagi gaplarni oʻqing. Oʻz va koʻchma maʼnoda kelgan soʻzlarni ajrating.

Meʼmornikida bir yorqin

Havo ochiq. Yulduzlar

Yulduz oʻsyapti. U yulduz – Badia.

Yorqin nur sochadi.

(*Mirmuhsin*)

(*Mirmuhsin*)

Hovlimizda bur gul bor,

Har oʻzbekning hovlisini

Uning ismi – Zulxumor.

Gilam kabi gul bezar.

(A. *Suyun*)

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi gul, yulduz soʻzlarining maʼnolarini aniqlang.

Namuna: 1-ustunda berilgan gaplardagi yulduz, gul soʻzlari qiz, farzand maʼnosini beradigan koʻchma maʼnoda qoʻllanilgan. 2-ustundagi mazkur soʻzlar esa oʻz maʼnosida qoʻllangan.

Demak, bir xil shakldagi soʻzlar ikkinchi tur maʼnoda ham qoʻllaniladi va mazkur holatni soʻzning koʻchma maʼnosi deb yuritiladi.

2-topshiriq. Gapdagi gul va yulduz soʻzlarining uyadoshlarini toping. Namuna: gul – atirgul, chinnigul, gulsafsar, boʻtakoʻz; gul-qiz, farzand, ona, ayol, singil; yulduz – sayyora, Yer, Oy, Quyosh, Mars, Yupiter, Neptun, yulduz – qiz, goʻzal qiz, tarbiyali, aqlli, ilmi qiz va h...

Bu kabi oʻyin topshiriqlar oʻquvchilardagi mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, mustaqil mushohada malakasini chuqurlashtirishga, soʻz boyligini oshirish va boyitishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

“Izohli kurs”ni oʻrganishda – oʻz va koʻchma maʼnoli soʻzlar orasidagi maʼnoviy munosabatlar, maʼno guruhleri (uyadosh, maʼnodosh, zid maʼnoli soʻzlar kabi)ning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi ustida ishlash, til sathlarini bogʻlab oʻrganish orqali lugʻat xazinasini oshirish va boyitishga imkon beradi.

Ona tili mashgʻulotlarida berilgan mashqlardagi soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolari ustida ishlanadi.

Bogʻlarga namozgar salqini tushdi,

*Gullar ham bargini **qayirdi** asta.*

*Oftob ham **suv ichar** togʻlardan pastda,*

*Loladek qip-qizil **oʻt-shafaq** oʻchdi.* (U. Nosir)

Ushbu satrlarda yasama goʻzallik yoʻq, tun bilan kunning oʻzaro almashish daqiqalariga xos belgilarni payqab, tuyib, koʻrib, kun botishi bilan salqin tushishini nozik badiiy boʻyoqlarda koʻchma maʼnoda tasvirlanadi. “Oftob ham suv ichar togʻlardan pastda...”, “Loladek qip-qizil oʻt-shafaq oʻchdi...” kabi.

Matn ustida ishlash mashqlaridan soʻng oʻquvchilarda mustaqil mushohada malakasini hosil qilish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Hayvon, qush va oʻsimlik nomlari roʻyxatini tuzing. Har bir soʻzni oʻz va koʻchma maʼnosida qoʻllab soʻz birikmasi va gaplar hosil qiling.

Namuna:

1-ish. Burgut, arslon, qaldirgʻoch, sher, lochin, ohu, kiyik ... v.h.

2-ish. Burgutning qanoti, arslon naʼarasi, qaldirgʻochlar qoʻshigʻi, hurkak kiyik, sherning yuragi va h.k.

3-ish. Bizning shirin uyqumizni arslon naʼrasi buzdi.

Burgutning qanotlari parvoz paytida salkam ikki metrga boradi.

Arslon tongda koʻzini ochdi. Uni qaldirgʻochlar galasining vijir-vijiri bezovta qilgan edi.

2-topshiriq. Hosil boʻlgan soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllab, gap tuzing.

1-ish.

Arslon	kiyik	
Sher	qaldirgʻoch	
Bobur	lochin - dek bola	Shoira ohu -dek qiz
Qarchigʻay	gul	
Burgut	toʻti	

2-ish. Gaplarni kengaytiring.

Namuna: Bobur – qaldirg‘ochdek yigit. Shoira – o‘hu ko‘zli, kiyikdek chaqqon qiz; Arslon va sherlar o‘rmon va tog‘larda yashaydilar. Lochinning ko‘zlari nihoyatda o‘tkir bo‘ladi.

Matn ustida ishlash mashqlaridan so‘ng o‘quvchilarda mustaqil mushohada malakasini hosil qilish uchun hayvon, qush va o‘simlik nomlari asosida metafora hosil bo‘lishiga misollar topish topshirig‘ini berish mumkin. O‘quvchilar hayvon, qush, o‘simlik nomlari orqali insonga xos bo‘lgan salbiy va ijobiy xususiyatlarni tavsiflash bilan o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar. Ular shaxsni qanday baholash va tavsiflashni so‘z birikmasi yoki gap qurish orqali izohlaydilar.

Topshiriq javoblari baholangach, madaniy va yovvoyi o‘simlik nomlari, lug‘atlar tuzish, ularni o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llab, gaplar qurish, matn yaratish, so‘zlar ko‘chma ma’noda ishlatilganda qanday ma’noni anglatayotganini tushuntirish talab etilsa, o‘quvchining ijodiy tafakkur doirasi kengayadi, so‘zlash mahorati rivojlanadi. Bunda, ayniqsa, badiiy asarlarga tayanish yaxshi samaralar beradi. O‘quvchilar e’tiborini so‘z ma’nolarining doimiy yashash joyi – nutq jarayoniga qaratish nihoyatda dolzarb va zaruriydir.

So‘z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko‘pqirrali bo‘lganligi uchun o‘quvchini yangi va notanish so‘zga e’tiborsiz bo‘lmaslikka, uning ma’nosini anglashga, zarur paytlarda o‘z nutqida qo‘llashga harakat qilishga o‘rgatish lozim. Metaforaga misollar topishda o‘quvchiga o‘zi o‘qiyotgan badiiy asardan misollar topish topshirig‘ini berish sinchkovlikka, e’tiborli bo‘lishga, topqirlikka o‘rgatadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar qobiliyatini namoyish etish, zehni o‘tkirlash asosiy vazifalardan biridir. Metafora mavzusini o‘tishda hayvon, qush, o‘simlik nomlari asosida ma’no ko‘chishi haqida gapirganda, botanika, zoologiya fanlaridan olgan bilimlariga ham tayaniladi, shu tariqa fanlararo bog‘liqlik masalasiga ham e’tibor qaratiladi.

1-topshiriq. Stolning oyog‘i birikmasidagi *oyoq* so‘zining ma’nosini tushuntiring. So‘zning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nosini ayting. To‘g‘ri va ko‘chma ma’nolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlang.

Ko‘rib turganingizdek, ma’no ko‘chishining turlarini o‘rganishda bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirishda so‘zning lug‘aviy ma’nosini tavsiflash, shu jarayonda to‘g‘ri va o‘rinli so‘zlash mahoratini egallash uchun leksik tahlildan foydalanish yaxshi natija beradi.

Demak, ma’no ko‘chish turlarini o‘qitish jarayonida eng avvalo, o‘quvchilarga uning nutqdagi ahamiyatini tushuntirish, o‘quvchilarni so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarini farqlashga, ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni aniqlay olish, ularni izohlash va o‘z nutqlarida qo‘llay olish darajasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollanishiga asosiy e’tiborni qaratish kerak.

2.2. Ma’no ko‘chish turlarini ona tili va adabiyot darslarining o‘zaro integratsiyasi asosida o‘rganish

Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg‘otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta’lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ta’lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi – o‘quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o‘zlashtirishda faollik ko‘rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta’limda aniq samarador natijaga erishishdir. Pedagogik texnologiya turli-tuman qirralarga ega.

Biz ushbu bo‘limda ma’no ko‘chish turlarini o‘rganishni ona tili va adabiyot darslarining o‘zaro integratsiya asosida olib borishning usullarini tavsiya etamiz.

Eng avvalo, integratsiya atamasiga to‘xtalsak. Integratsiya – ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir²¹. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o‘stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa ham ta’lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik.

²¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т. I - М.: Русский язык, 1981.-Б. 380.

Integratsiya – “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, bu tafakkur o’sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo’lib hisoblanadi.

Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan integratsiyalash o’quvchilarning badiiy tasvir vositalariga doir bilim, ko’nikma va malakalaridan ona tili darslarida foydalanish, shularga tayangan holda badiiy matnning til xususiyatlarini, undagi so’z ishlatish mahoratini o’rganish, shu orqali yoshlarning badiiy ijodiga ta’sir etish maqsadini ko’zda tutadi. Bundan tashqari ona tili darslarida adabiyot darslarida o’rganiladigan ayrim tushunchalarni konkretlashtirish, kengaytirish va chuqurlashtirish imkoniyati mavjud. G. G. Nikitining fikricha, ona tili darslarida ijodiy ishlarni tashkil etishga integratsiyalash asosida yondashish maqsadga muvofiqdir. Bunda o’quvchilarga biror ijodiy ish turini o’rgatish ishi ona tili va adabiyot darslarida, nutq o’stirish ishlari tizimiga muayyan izchillikda tartiblanadi²².

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda ma’no ko’chish turlarini o’rganishni 7-sinfda Cho’lpon she’rlari yordamida integratsiyalash usullarini tavsiya etmoqchimiz.

O’qituvchi Cho’lpon hayoti va ijodiga tegishli bo’lgan ma’lumotlarni berib bo’lgach, keyingi darslarni uning ijodini o’rganishga yo’naltiradi. O’qituvchi o’quvchilar uchun uyda bahor faslining tabiatini, binafsha gullarining ochilib turgan manzarasini tasvirlab kelishni topshiriq sifatida oldindan berib yuborishi lozim. Yangi darsda o’qituvchi o’quvchilar tomonidan chizib kelingan suratlar asosida sinf taxtasida rasmlar galereyasini tashkil etadi. Ushbu galereya asosida bahor va uning go’zal tabiati haqida o’quvchilarning og’zaki fikr-mulohazalari eshitiladi. So’ng Cho’lponning “Binafsha” she’ri ifodali o’qiladi yoki audioyozuv orqali eshittiriladi.

²² Никитина Г.Г. Обучение младших школьников творческим работам на основе интеграции языковой и литературной подготовки. Составление рассказа по серии сюжетных картинок // Начальная школа. – 2007. – № 5.

BINAFSHA²³

*Binafsha senmisan, binafsha senmi
Ko 'chada aqchaga sotilgan,
Binafsha menmanmi, binafsha menmi,
Sevgingga, qayg 'ungga tutilgan?
Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho 'zilding?
Binafsha,
Ayt menga,
Kimlardir, ularkim,
Ignani bag 'ringga socharlar?
Binafsha,
Bir so 'yla,
U qanday qo 'llarkim,
Uzarlar, hidlaylar, yancharlar?
Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor,
Nimaga uzoqroq kulmaysan?
Binafsha shunchalar tortguvchi tusing bor,
Ko 'nglimga isriqlik to 'kmaysan?*

*Binafsha yig 'lama, binafsha kel beri,
Qayg 'ungni qayg 'umga qo 'shgil.
Binafsha, sen uchun ko 'kragim erk yeri,
Bu yerdan ko 'klarga uchgil.
Binafsha, go 'zalim, qayg 'ulim, kelmaysan,
Qayg 'ung zo 'r, qayg 'umni bilmaysan,*

²³ Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim makablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua/ Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J.. Qayta ishlangan 3-nashri.– Toshkent: Sharq, 2013. -368 b.

Menga bir kulmaysan.

She'r ifodali o'qib bo'lingach, o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni ikki guruhga bo'ladi. Birinchi guruhni "*She'riyat shaydosi*", ikkinchi guruhni esa "*Tafakkur cho'qqisi*" deb nomlaydi. So'ng guruhlar uchun quyidagi topshiriqlar ketma-ketligini topshiradi.

1-guruh "*She'riyat shaydosi*" guruhi ushbu she'rni adabiyotshunos sifatida tahlil qilishi uqtiriladi va ularga she'rning adabiy jihatdan ma'no-mazmunini ochib beruvchi quyidagi savol va topshiriqlar beriladi:

1. Binafsha obrazi qanday majoziy ma'noga ega deb o'ylaysiz?
2. She'rning: "*Binafsha senmisan, binafsha senmi, Ko'chada aqchaga sotilgan. Binafsha menmanmi, binafsha menmi, Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?*" misralarida ifodalangan fikr va tuyg'ular haqida o'ylab ko'ring.
3. Binafsha obrazida lirik qahramon munosabati to'liq namoyon bo'lgan o'rinlarni toping va izohlang.
4. Azobli hayot ta'sirchan tasvirlangan satrlarni aniqlang va sharhlab bering.
5. She'rning uchinchi bandi dastlabki to'rt misrasidagi so'zlar miqdoriga e'tibor bering. Uni badiiy vazifasi jihatidan izohlashga harakat qiling.
6. "*Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri*" misrasining mazmunini sharhlang.
7. She'rda shoir ruhiyatining ifodalanishiga e'tibor qiling.

Keyingi ikkinchi "Taffakur cho'qqisi" guruhi ushbu she'rni tilshunos sifatida tahlil qilib berishi lozimligi uqtiriladi va ular uchun ushbu savol va topshiriqlar ketma-ketligi beriladi.

1. She'rda ma'no ko'chish yo'llarining qanday turlari ishtirok etgan?
2. "*Binafsha sen uchun ko'kragim erk yeri, Bu yerdan ko'klarga uchgil*" tarzida ifodalangan misralarda ma'no ko'chishning qanday turi mavjud?
3. "*Ko'kragim*" va "*erk yeri*" so'zlari orqali qanday tushunchalar ifoda etilgan deb o'ylaysiz?

4. She'rdagi "binafsha" timsoli qanday ma'no tashiyotgani to'g'risida o'ylab ko'ring.

5. Nima uchun shoir she'rda o'z fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalay olmagan?

6. Binafsha, uning ochilishi, tezda so'lishi va shoir ruhiyati o'rtasida qanday bog'liqlik bor deb o'ylaysiz?

7. She'rning ma'no-mazmunini ochib berish uchun qo'llanilgan mavhum otlarni ko'rsating. Nima uchun aynan mana shu mavhum tushunchalardan foydalanilgan?

Ushbu topshiriqlar ketma-ketlik bilan bajarib bo'lingach, o'qituvchi Cho'lpon hayoti va ijodi haqidagi quyidagi fikrlarni bildirib o'tishi lozim:

O'zining har bir asari bilan Cho'lpon xalqimiz uchun o'g'ir sinov davri hisoblangan 20-30-yillarda chin vatanparvar, haqiqiy istiqlol kuychisi va kurashchisi sifatida namoyon bo'lganligi haqida biz o'tgan darslarda gaplashgan edik. Bugun esa biz Cho'lponning "Binafsha" she'rini o'rganar ekanmiz, she'rdagi "binafsha" timsoli qanday ma'no tashiyotganligi haqida o'ylab ko'raylik. She'rda shoirning ichki kechinmalari ko'klam ko'kati "binafsha"ga qaratilganmi, xo'rlangan qizgami yoki haqoratlangan yurtgami, ezilgan millatgami? Agar biz ushbu she'rni yaxshilab o'rganar ekanmi, ushbu timsol orqali erk tuyg'usi, istiqlol umidi yorqin ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.


Cho'lponning yigirmanchi yillarda yaratilgan "Go'zal", "Xalq", "Ko'ngil", "Buzilgan o'lkaga", "Erkinlik istagi" va shu qatorda "Binafsha" she'ri o'quvchiga ozodlik tuyg'ularini singdirishga boy ozuqa bera oladigan asarlardir. Ularni o'rganish, tahlil etish jarayonida yosh avlod ongida mustaqil Vatanga cheksiz muhabbat uyg'otish mumkin.

Ana shu yuqorida tilga olingan juda ko'plab asarlari orqali Cho'lpon xalqimizning erki va ozodligi yo'lida iymon-e'tiqod timsoliga aylandi. Shoir go'zal Turkistonni mustaqil, erkin holda ko'rishni shu qadar orzu qiladiki, tuzum mafkurachilari uning og'zini berkitib, nafasini chiqarmay turganida ham o'zining

o'lmas satrli ozodlik ruhi bilan sug'orilgan she'rlari bilan kurashdi, o'z so'zini ayta oldi. Va oxir oqibatda o'zi uchun muqaddas hisoblangan Vatan uchun, jondan ortiq sevgan xalqi uchun jon fido qildi.

Ushbu ma'lumotlar aytib bo'lingach, ko'chim va uning turlari haqida nazariy ma'lumot beriladi. Slaydlar orqali tushuntiriladi.

KO'CHIM – so'zni ko'chma ma'noda qo'llash yoki narsa-hodisaga xos sifatlarni qaysidir jihati bilan shularga o'xshaydigan boshqa narsa-hodisalarga ko'chirish san'atidir.



Majoz adabiy asarda o'quvchiga noaniqroq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalashdir. Gulxaniyning "Tuya bilan bo'taloq", "Maymun bilan najjor", "Toshbaqa bilan chayon" asarlarida insonlarga, ayrim ijtimoiy tabaqalarga xos xususiyatlarning hayvon obrazlariga ko'chirilishi majozning yorqin namunasidir.

Ramz ham ko'chimning keng tarqalgan turlaridan biridir. O'quvchi anglashi murakkabroq bo'lgan mavhum axloqiy-ma'naviy sifatning shu sifatlarga ko'proq


ega bo'lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishiga ramz deyiladi. O'zbek mumtoz adabiyotida may – hayot ramzi, gul – ma'shuqa ramzi, burgut – mag'rurlik ramzi, chumoli – mehnatsevarlik, tirishqoqlik ramzi va h.k. tarzida qadimdan qo'llanib kelinadi.

*Istiora*da biror narsa-hodisaga xos xususiyatlarni boshqa bir narsa-hodisaga ko'chirish orqali badiiy ma'no ifodalanadi. Lekin bu ko'chirishda tashqi o'xshashlik asosiy o'rin tutmaydi. Balki o'xshatilayotgan va o'xshayotgan narsa-hodisalar orasidagi ichki mantiqiy bog'lanishga, yaqinlikka, vazifalaridagi umumiylikka tayanadi. Istiorani qisqargan ko'rinishdagi o'xshatish deyish mumkin.

Cho'lponning “Binafsha” she'rida “Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri, Bu yerdan ko'klarga uchgil” tarzida ifodalangan misralar bor. Unda “**Vatan**” tushunchasi “ko'kragim” so'z bilan, “**ozod yurt**” tushunchasi “erk yeri” so'zlari bilan ifoda etilgan. Shu orqali shoir o'z she'rida badiiy adabiyotga xos bo'lgan ko'chimning **istiora** turidan foydalangan.

Yuqoridagi ma'lumotlar berib bo'lingach, o'qituvchi ko'chim hamda “Ona tili” fanida o'rganilgan ma'no ko'chish hodisalari o'rtasida qanday o'xshashlik va farqli tomonlar mavjudligi haqida so'raydi. Ma'no ko'chishi haqidagi quyidagi ma'lumotlarni esga soladi.

KO'CHMA MA'NO – ma'lum bir ko'p ma'noli so'zning nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladigan ma'nosi. Masalan: *yo'lda tosh yotibdi* – o'z ma'nosi; *bag'ri tosh* – ko'chma ma'noda.



VAZIFASI	
<p><i>Ma'no ko'chish yo'llaridan nutqda o'rinli foydalanish nutqimizni ta'sirchan, lo'nda va ifodali qiladi. So'zlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.</i></p>	<p><i>Ko'chimdan foydalanganda nutqimiz ta'sirchan bo'ladi, so'zlarning badiiy-estetik qiymati oshadi.</i></p>

Yuqoridagi topshiriqlardan so'ng o'quvchilarga ozodlik, erkinlik, Vatan tuyg'usi haqidagi o'zbek xalq maqollarini izlab topish va ularni izohlash so'raladi.

*Ona yurtning – oltin beshiging.
O'zga yurtda shoh bo'lguncha,
O'z yurtningda gado bo'l.
Yeridan ayrilgan yeti yil yig'lar,
Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.
Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.
Daraxtni yer ko'kartiradi,
Odamni el ko'kartiradi.*

*Ona yurtning omon bo'lsa,
Rangi ro'yining somon bo'lmas.
Vatanning tinch – sen tinch!*

Topshiriq: Yuqorida berilgan maqollar tarkibida qo'llanilgan so'zlarni bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar guruhiga ajrating. Ko'chma ma'noda kelgan so'zlarni tahlil qiling.

Uyga topshiriq: She'rni yod oling. Siz ham ozodlik, erk kabi tuyg'ularni qanday ko'chma ma'nolarda ifodalagan bo'lar edingiz? Uyingizda ana shunday o'xshatishlarga, ko'chim turlariga misollar topib keling.

Ona tili va adabiyot darslarini o'zaro integratsiya asosida tashkil etilishi o'rganilayotgan badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganish bilan birga, alohida bosqichda shu badiiy matnda mavjud bo'lgan badiiy tasvir vositalarini aniqlashga, ularga nisbatan e'tiborli bo'lishga, bundan tashqari ushbu vositalarning ona tilida o'rganilayotgan hodisalar bilan qanday aloqadorlik hosil qilishini anglash uchun juda katta yordam beradi.

Ma'no ko'chish mavzusini o'rganishni nafaqat adabiyot darslari bilan integratsiya asosida tashkil qilish, balki ushbu mavzuni o'rganishni o'simlik va ularning xususiyatlari, hayvonlar va ularning xususiyatlarini o'zaro bog'lagan holda botanika, zoologiya fanlari bilan yoki payrovlar, askiya va latifalar orqali xalq og'zaki ijodi bilan o'zaro bog'lab, integratsiya asosida o'rganish ham mumkin.

2.3. Ma'no ko'chish turlarini o'rgatish orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish usullari

Ona tili o'qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda bugungi kunda ona tili va adabiyot o'qituvchilari o'quvchidagi og'zaki va yozma nutqning sifatini oshirish masalasiga alohida e'tiborni qaratib kelmoqdalar. Shu asosda ona tili o'qituvchilari bugungi kunda o'quvchilarning nutq madaniyatini oshirish, ijodiy

tafakkurni hosil qilish, nutqning ta'sirchanligi va jozibadorligini oshirish ustida bir qancha zamonaviy interfaol usullarni qo'llagan holda o'z darslarini tashkil etishmoqda.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish nutq madaniyatini rivojlantirish asnosida amalga oshirilgani ma'qul. Bu ish ularni ijodga undash, so'z va so'z shakllarining badiiy qiymat yaratishdagi jihatlarini o'rgatish tariqasida tashkil etiladi. Ma'no ko'chish turlari mavzusi o'rganilayotganda ham o'qituvchi ushbu vositalarga o'quvchining nutq madaniyatini va ta'sirchanligini oshiruvchi vosita sifatida qarashi lozim. Aynan mana shu vositalarning og'zaki va yozma nutqdagi o'rni va ta'sirini aniq sezgan o'quvchi ma'no ko'chish yo'llarining badiiy matnlardagi o'rni va ahamiyatini tushunib, uni o'z nutqida qo'llash malakasini egallaydi. Quyida biz ana shu maqsadni amalga oshirish uchun bir nechta usullarni tavsiya etmoqchimiz.


Odatda, so'z boyligini oshirish va nutqni o'stirishga qaratilgan mashqlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning lug'at boyligini yangi so'zlar bilan boyitish, ushbu so'zlarni o'z nutqida o'rinli qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Lekin ona tili o'qitishda o'quvchilarning lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish bilan birga ushbu so'zlardan qanday foydalanish, nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi ko'chma ma'nodagi so'zlarni o'rinli qo'llay olish malakasini shakllantirish alohida yondashuvni talab etadi.

Ma'no ko'chirish turlari mavzusi o'tilayotganda ham o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini asosan ushbu vositalarning nutqning ta'sirchanligini oshirishdagi o'rniga qaratishi kerak bo'ladi. Chunki o'quvchi nutqning jozibador va ta'sirchan bo'lishida so'zlardagi ma'no ko'chish yo'llarini o'rganish va uni o'z nutqida qo'llay olish malakasini rivojlantirish juda muhimdir. Bundan tashqari, nutqning ta'sirchanligi nutqning kommunikativligiga o'z ta'sirini ko'rsatish bilan birga barcha tayanch kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu usullar qiyinchilik darajasiga ko'ra o'sib borish tartibida berib borilishi maqsadga muvofiqdir.

“VENN DIAGRAMMASI” USULI

“Venn diagrammasi” asosida ma’no ko‘chish turlarining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini qiyoslash mumkin. Masalan:



“QIYOSIY TAHLIL” USULI

Ma’no ko‘chish turlari haqidagi nazariy ma’lumot o‘zlashtirilgach, ushbu bilimlarni qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida “**Qiyosiy tahlil**” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchilar uchun ikki xil badiiy matn taqdim etiladi va ulardan ushbu matn tarkibida berilgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi ma’no ko‘chish turlaridan qay biri ishtirok etayotganligi so‘raladi.

Masalan:

Rahmi kelib bulutning

Yig‘lab to‘kar yoshini.

Qushlar qochar, majnuntol

Ko‘taradi boshini.

Bulutning orasidan

*Quyosh kulib qaraydi,
Majnuntolning yuvilgan
Sochlarini taraydi.*

(E. Vohidov)

*Qishlog'imiz ko'hna, bir etagida
Osmonga tutashgan dasht edi.
Polizkapa qurib, kechalar tomda
Yulduz sanab yotish – ajib gasht edi.*

(A. Muxtor)

E. Vohidovning she'ridan olingan birinchi, Asqad Muxtorning "Yulduzim" she'ridan olingan ikkinchi parcha ifodali o'qib bo'lingach, o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi.

1. *Birinchi to'rtlikda qanday ma'no ko'chish yo'llari ishtirok etgan?*
2. *Ikkinchisida-chi?*

O'quvchilar to'rtlikni o'qigach, birinchi to'rtlikda ma'no ko'chishning metafora usulidan (*yomg'irning yog'ishi bulutning rahmi kelib ko'z yosh to'kishiga, majnuntol shoxlarining qattiq shamolda u yon bu yonga esishi majnuntolning bosh ko'tarishiga, tezda yog'ib o'tgan yomg'irdan so'ng qora bulutlar orasidan quyoshning chiqishi quyoshning kulib qarashiga, yomg'irdan so'ng yuvilgan majnuntolning shoxlari quyosh nurida tovlanishi quyoshning majnuntolning yuvilgan sochlarini tarashiga o'xshatilgan*) foydalanilganligi, ikkinchi to'rtlikda esa ma'no ko'chish turlaridan foydalanilmaganligi haqida ma'lumot berishadi.

Suhbat jarayoni quyidagi savollar bilan davom ettiriladi:

1. *E. Vohidov o'zining she'rida qanday hissiyotlarni ifodalamoqchi bo'lgan, ushbu she'riy parchani o'qigach qanday manzara ko'z oldingizga keladi va kayfiyatingizda qanday o'zgarish sodir bo'ladi?*

2. *Asqad Muxtorning "Yulduzim" she'ridan olingan ushbu parchani o'qigach ko'z oldingizda qanday manzara paydo bo'ladi. Ushbu she'riy parchani o'qigach sizning kayfiyatingizda qanday o'zgarish bo'ladi?*

3. *E. Vohidovning she'ridan olingan parchada nechta so'z qatnashayotganligini sanang, ularning nechtasi ko'chma ma'noda qo'llanilgan?*

Birinchi to'rtlikda 20 ta so'z berilgan bo'lib, unda bor-yo'g'i 7 ta so'z o'z ma'nosida qo'llanilganligini aytishadi. Qolgan so'zlar yordamida E. Vohidov ushbu she'riy parchada 4 ta metaforik hodisani yuzaga chiqarganligini ko'rish mumkin.

Tahlil amalga oshirilib bo'lingach, o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etadi:

1. *Ushbu she'riy parchalarning qay biri ta'sirliroq deb hisoblaysiz?*
2. *Ushbu ta'sirchanlik nimaning evaziga yuzaga chiqayotganligini izohlang.*

“BO‘SH O‘RINLARNI TO‘LDIR” USULI

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarga to'liq bo'lmagan gaplar, she'riy parchalar berildi. Nuqtalar o'rniga esa o'quvchi qo'yishi mumkin bo'lgan bir nechta variantlar taqdim etiladi. O'quvchi ushbu variantlar ichidan aynan ma'no ko'chish hodisasini yuzaga keltiradigan so'zni tanlab oladi va ushbu gapni tahlil qilib beradi.

Masalan: 1. *Mungli kuy yurakniedi. (tirnar, o'rtar, qiynar)*

2. *Har bir odamning fasli – yoshlik davri unutilmas bo'ladi. (gullagan, go'zal, ajoyib)*

3. *Bola onasining oldiga ... , pildirab ketdi. (tushib, o'tib, kelib)*

4. *Guruhimizning birlashishi uchun unga bir ... kerak bo'lib qoldi. (boshqaruvchi, yetakchi, bosh)*

5. *Talabalik - ... davrim. (eng zo'r, oltin, yaxshi)*

6. *Biz ishlayotgan bu dargohning qonunlarini hech kim buza olmaydi. (yozilmagan, o'rnatilgan, temir)*

“IJODKOR O‘QUVCHI” USULI

Ushbu usulda o'quvchilar uchun to'liq bo'lmagan gaplar beriladi. O'quvchilardan ushbu gaplardagi bo'shliqni iboralar bilan to'ldirishi va ushbu

iboralarda ma'no ko'chish hodisasining qaysi turi ishtirok etayotganligini izohlashi so'raladi.

1. *Sekinroq gapiring, aylanay, ... (birov eshitib qolmasin ma'nosida) J: devorning ham qulog'i bor.*

2. *Ba'zam davon oshishingga ... (ishonmay, qo'rqib ketasan) J: ko'zing yetmay, yuraging orqaga tortib ketadi.*

3. *Kechagi futbol bahsida O'zbekistonning ... (yutdi) J: qo'li baland keldi.*

4. *Xushxabarni Solijonning onasiga yetkazish uchun (tez yugurdi). J: oyoq bo'lib yugurdim.*

“ASKIYA PAYROVI” USULI

Buning uchun o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni ikki guruhga ajratadi va ulardan ikkitasini sinf taxtasi oldiga chaqirib, “Men sizni nomladim...” usulida so'z o'yinini tashkil qilishni so'raydi. 1-guruh a'zolaridan biri 2-guruhdan istagan bir o'quvchiga qarab: “Men sizni o'xshatdim sher kelbatli arslonga, shuning uchun sizni Arslonxon deb atadim”, - deydi. “Yangi nom olgan” bu o'quvchi o'z navbatida 1-guruhdagi istagan bir o'quvchiga metafora yo'li bilan nom qo'yadi. Askiya payrovi shu zaylda guruhlararo o'tkazilib, xato nomlab qo'ygan yoki metafora yo'li bilan nomlay olmagan guruh o'yindan chetlatiladi. G'olib guruh rag'bat kartochkasiga ega bo'ladi.

“IZOHLI LUG'AT” USULI

O'quvchilar ikki yoki undan ortiq guruhlarga bo'linadi. So'ng guruhlarga “O'zbek tilining izohli lug'ati”dan foydalanib *avlod, qosh, g'arq, oltin, issiq, temir, qadam, ildiz* so'zlarining to'g'ri (o'z) va ko'chma ma'nolarini aniqlash hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikni izohlash topshirig'i beriladi.

O'quvchilar bu topshiriqni quyidagicha bajarishlari mumkin:

So'zlar	Izohlar
Avlod	1.Ota-bobodan qolgan nasl; zamonning ma'lum qismiga mansub

	<p>odamlar; bo‘g‘in.</p> <p>2. <i>ko‘chma</i> Zamonaviy elektron-hisoblash mashinalarining va boshqa texnik jihozlarning yangilangan, takomillashgan turkumi.</p>
Qosh	<p>1. Qovoq tepasidagi yoysimon tukli qatlam.</p> <p>2. Ba‘zi narsalarning old qismi, turtib chiqqan joyi. <i>Ayvonning qoshi</i>.</p> <p>3. Uzuk, isirg‘a kabilarga o‘yib solingan yoysimon gul - bezak.</p>
G‘arq	<p>1. Suvga cho‘kkan, suv qa‘riga botgan.</p> <p>2. <i>ko‘chma</i> Biror narsaga ko‘milib ketgan; burkangan, cho‘mgan holatli (holatda).</p>
Oltin	<p>1. Mendeleev davriy sistemasining I guruhiga mansub kimyoviy element; sariq-qizg‘ish tusli qimmatbaho nodir metall; zar: tilla.</p> <p>2. <i>ko‘chma</i> Har qanday qimmatbaho yoki aziz narsa haqida.</p>
Issiq	<p>1. Jism tarkibidagi molekulalar harakati natijasida yuzaga keladigan isitadigan va jismlarni qizdiradigan kinetik energiya; issiqlik, harorat.</p> <p>2. <i>ko‘chma</i> Kishiga xush keladigan, yoqimli.</p>
Temir	<p>1. Mendeleev davriy sistemasining VIII guruhiga mansub kimyoviy element, bog‘langanda yassilanadigan, istalgan shaklga kiradigan, uglerod bilan qo‘shilganda, po‘lat va cho‘yan hosil qiladigan qoramtir kumush rabg‘li og‘ir metall.</p> <p>2. <i>ko‘chma</i> Yozuvlari qonun kuchiga ega bo‘lgan daftar.</p>
Qadam	<p>1. Yurish jarayonidagi har bir oyoq tashlash, oyoq bosish; odim.</p> <p>2. <i>ko‘chma</i> Ish-faoliyat, rivojlanish</p>
Ildiz	<p>1. O‘simlikning yerdan suv va o‘g‘it moddalar olib beradigan yer osti qismi; tomir.</p> <p>2. <i>ko‘chma</i> Asos, negiz, manba. ...<i>qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an‘analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz kerak.</i></p>

Topshiriq. Hayvonlar bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘no ko‘chish hodisalarini o‘zaro solishtiring. Ushbu o‘xshatishlar hayvon va inson fe‘l-atvori o‘rtasidagi

qanday o'xshashlikka asoslangan. O'zingiz ham *ilon, qaldirgo'ch, burgut* kabi so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llab gaplar tuzing.

Chigirtka - *Chigirtkalar ekin yer, ekmay-tikmay, tekin yer.* (Maqol)

-Keldilar chigirtkalar,-dedi u tomonga qarab Haydar. Hammalari u tomonga qaradilar. Yigirma-yigirma besh otliq yo'lni changitib kelmoqda edi.

(S. Ayniy)

Sher - *Ovchining zo'ri sher otadi, dehqonning zo'ri yer ochadi.* (Maqol)

-Balli, sher, xatni qo'lingizdan kim oldi?

-Bir chol.

(A. Qodiriy)

Fil - *Quruqda yashovchi hayvonlarning eng yirigi fildir.*

Xalilov bilan bahslashib o'tirish shartmi, Xalilov –fil, sen – qo'chqor.

(I. Rahim)

Tulki - *Boshiga tulki telpak kiygan bu otliq unga tanish ko'rindi.* (H. G'ulom)

Ishonmayman-u, lekin qari tulki eridan ko'p narsani yashirishini bilaman.

(O'. Umarbekov)

Ohu - *Masalan, tog'lardagi ohular, o'rmondagi to'tilar, chamandagi bulbullar yolg'iz emas, juft bo'lib yashaydilar,-dedi Anvar.*

(A. Qodiriy)

Xayr endi... qalbimda bir vido qoldi,

Xayr endi sen ketding begunoh ohu.

(A. Oripov)

“UYADOSH SO‘ZLAR GURUHI BILAN ISHLASH”

Topshiriq. Berilgan mavzu bilan bog'liq bo'lgan uyadosh so'zlar guruhini hosil qiling. Ushbu so'zlarni o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llab gaplar tuzing.

Masalan:

1. **O'simlik bilan bog'liq so'zlar:** ildiz, gul, urug', nihol, kurtak va h.
2. **Oshxona anjomlari:** elak, piyola, tovoq, qoshiq, choynak va h.
3. **Inson tana a'zolari:** ko'z, quloq, burun, qo'l, barmoq va h.

1. O‘z ma’nosida: *Bemaza qovunning **urug‘i** ko‘p bo‘ladi.*

Ko‘chma ma’noda: *Ertaklar bolajonlarning ko‘ngliga yaxshilik **urug‘ini** sochadi.*

2. O‘z ma’nosida: *Choynak-**piyolalarni** tozalab yuvib, joy-joyiga taxlab qo‘ying, qizim.*

Ko‘chma ma’noda: *Ikki **piyolani** ichdim-u, chanqog‘im qoldi.*

3. O‘z ma’nosida: ***Ko‘z** o‘tkirligini yaxshilash uchun ko‘proq baliq va baliq mahsulotlarini tanavul qilib turish lozim.*

Ko‘chma ma’noda: *Ikki **ko‘zi** har nav mollar bilan to‘la xurjunni yelkaga tashlab, inqillab kirdi.*

“KIM CHAQQON?” USULI

Darsning yanada qiziqarli bo‘lishi uchun “**Kim chaqqon?**” o‘yinini tashkil qilish mumkin. Unda guruhdagi uchta qator uchta jamoa sifatida ishtirok etadi. Bu o‘yinni tashkil etish uchun ko‘chma ma’noda qo‘llash mumkin bo‘lgan uchta so‘z, ya’ni *gul, shirin, issiq* so‘zlari sinf taxtasiga yozib qo‘yiladi. Har bir guruh vakillari chiqib yozuv taxtasidan o‘zlari uchun ajratilgan joyga shu so‘zlar ishtirok etgan maqollardan yozishi kerak bo‘ladi. Kam vaqt ichida ko‘p maqol topgan o‘quvchi topshiriq g‘olibi sanaladi. Qolganlar esa mustaqil ravishda daftarlariga bilganicha maqollardan yozishi shart. Ular ham yuqorida qo‘yilgan shartga amal qilishi lozim.

“MANTIQUIY MUSHOHADA” USULI

Ushbu usulda o‘quvchilar uchun ko‘chma ma’no turlari qatnashgan kichik ijodiy matnlar topshiriladi. So‘ng ushbu matn asosida o‘quvchilarning mantiqiy mushohada qilishlari uchun bir nechta savol va topshiriqlar beriladi. Ushbu amaliy ishlarni mustahkamlash va egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish bosqichida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Masalan:

To‘rt toifa

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan do'st-shunchaki do'st.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida g'oyib bo'ladigan do'st-do'st emas.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida xiyonat qiladigan "do'st"- dushman.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan quvmaydigan, boshingga bulut kelganida izingdan qolmaydigan do'st-haqiqiy do'st.

1. Ushbu matn tarkibida ma'no ko'chishning qanday turlari mavjud?
2. Ushbu o'xshatishni o'z so'zlaringiz bilan izohlang. *Boshingda quyoshning charaqlashi* –
3. Ushbu o'xshatishni o'z so'zlaringiz bilan izohlang. *Boshingga bulut kelishi* –
4. Ushbu ko'chimlarning tabiat hodisalari bilan qanday aloqasi bor. O'z fikrlaringizni bildiring.
5. Ma'no ko'chish turlari ishtirokida "Haqiqiy do'st" mavzusida ijodiy matn yarating.

“IJODIY YONDASHUV” USULI

“Ona tili” o'quv fani o'quvchini tilimizning go'zal olamiga olib kirishini nutqni yaxshilash, boyitish, *unga badiiy bo'yoq berish*, nafosat bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etishini isbotlash maqsadida badiiy matn yaratishning quyidagi bosqichli usulini taklif etamiz.

Topshiriq. Berilgan badiiy matnni ko'chma ma'nodagi so'zlar va iboralar, tasviriy ifodalarni qo'llagan holda hissiy-ta'siriy jihatdan boyiting.

O'lkamizga bahor fasli kirib keldi. Butun tabiat jonlanib, yashil tusga kirdi. Daraxt va gullarning hidi dimoqqa urilib, mayin shabada kishi qalbini quvontiradi. Ayniqsa, o'rik daraxtining oq gullari har kimni xursand qiladi.

Bolalarning quvonchi cheksiz, atrofda bir-biridan chiroyli varraklar uchmoqda. Bobo dehqonlar bahorning ajib tarovatidan zavq olib, ekin ekish ishlariga kirishgan. Bog'larda qushlar sayraydi, ayniqsa, qaldirg'ochlar o'zlari uchun in qurish payiga tushib qolganlar.

O'qituvchi ushbu matnni hissiy-ta'siriy jihatdan boyitishni quyidagi bosqichlar yordamida olib borishi mumkin:

O'qituvchi o'quvchilarga bahor faslining tabiatini o'zida aks ettirgan rangli rasmni ko'rsatadi, ularni bahor fasli, uning go'zal tabiati haqida o'ylashga da'vat etadi. So'ng o'quvchilar quyidagi topshiriqlarni ketma-ketlik bilan bajaradilar.

1-topshiriq. "O'lkamizga bahor fasli kirib keldi". Ushbu gap tarkibidagi gap bo'laklarini tahlil qiling. Gapni aniqlovchi bilan to'ldiring. O'quvchilar taxminan "O'lkamizga go'zal bahor fasli kirib keldi", "O'lkamizga zumrad bahor fasli kirib keldi", "O'lkamizga ko'rkam bahor fasli kirib keldi" kabi birikmalarni misol qilib keltirishlari mumkin. O'qituvchi o'quvchilardan ushbu gaplarni tahlil qilib berishni, nima uchun bahor faslini go'zal, ko'rkam, zumrad deb atashimizni so'raydi. O'quvchilar o'z fikrlarini bildirib o'tadilar. O'qituvchi "O'lkamizga fasllar kelinchagi bahor fasli kirib keldi" deya o'z variantini taqdim etadi. O'quvchilar o'zlari uchun ma'qul bo'lgan variantni daftarlariga yozib oladilar. Agar ushbu variant biron-bir o'quvchi tomonidan aytilgan bo'lsa, yoki undan ta'sirliroq jumla tuzilgan bo'lsa o'qituvchi ana shu o'quvchini rag'batlantiradi va xuddi shu gapni daftarga yozib olishni aytadi.

2-topshiriq: "Butun tabiat jonlanib, yashil tusga kirdi". Gap tarkibida "yashil tusga kirdi" birikmasini boshqa so'z bilan almashtirib ko'ring. 5-sinf o'quvchilari ushbu birikmaning o'rniga ta'sirliroq, badiiyoq birikmani topa olishga qiynalishsa, o'qituvchi ularga quyidagi variantlarni taqdim etishi mumkin: "yashil tusga burkana boshladi", "yashil tus ola boshladi", "yashil rangga kira boshladi". O'qituvchi berilgan so'z birikmalari ichidan uchun eng ma'qul va o'ziga xos bo'lgan variantni tanlashni, so'ng daftarga yozib olishni aytadi.

3-topshiriq. "Daraxt va gullarning hidi dimoqqa urilib, mayin shabada kishi qalbini quvontiradi". Ushbu gap tarkibidagi "quvontiradi" fe'li o'rniga yana

qanday fe'lni qo'llash mumkinligi haqida o'quvchilardan taklif so'raydi. O'quvchilarning fikri tinglangach "quvontiradi" fe'li o'rniga "qitiqlaydi" fe'lini qo'llab ko'rishni tavsiya etadi.

4-topshiriq. Ayniqsa, o'rik daraxtining oq gullari har kimni xursand qiladi. O'qituvchi ushbu gap tarkibidagi sifatni topishni va ushbu sifatni orttirma darajada qo'llab ko'rishni taklif etadi. Shuningdek, xursand qiladi birikmasini "ko'zni quvnatmoq", "dillarga orom bag'ishlamoq" kabi birikmalar bilan almashtirib qo'llashni tavsiya etadi.

5-topshiriq. Bolalarning quvonchi cheksiz, atrofda bir-biridan chiroyli varraklar uchmoqda. O'quvchilar ushbu gap tarkibidagi "quvonchi cheksiz" birikmasini qanday ibora bilan almashtirish mumkin ekanligi va "uchmoqda" fe'lining o'rniga yana qanday so'zni tanlash mumkinligi haqida o'ylab ko'radilar.

6-topshiriq. Bog'larda qushlar sayraydi, ayniqsa, qaldirg'ochlar o'zlari uchun in qurish payiga tushib qolganlar. Ushbu gap tarkibidagi "sayraydi" so'zining o'rniga musiqa bilan bog'liq bo'lgan so'zni tanlang, "qaldirgo'chlar" so'zini qanday tasviriy ifoda bilan ifodalash mumkin?

Hosil bo'lgan har bir yangi gap daftarga yozib boriladi. Barcha topshiriqlar bajarilgach o'quvchilarda oldingi va yangi hosil bo'lgan matnlar o'zaro nimasi bilan farq qilishini bilib olish, so'z ma'nolarini qiyoslash va farqlash, badiiy matndagi ta'sirchanlik, badiiylik qaysi unsurlarning hisobiga yuzaga chiqayotganligini yaqqol ko'rishlari uchun ushbu matnlarni yonma-yon holda ekranda ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jadvalda o'quvchilar tomonidan o'zgartirish kiritgan o'rinlar qora kursiv bilan ajratilgan bo'lishi kerak.

<p>O'lkamizga bahor fasli kirib keldi. Butun tabiat jonlanib, yashil tusga kirdi. Daraxt va gullarning hidi dimoqqa urilib, mayin shabada kishi qalbini quvontiradi. Ayniqsa, o'rik daraxtining</p>	<p>O'lkamizga <i>fasllar kelinchagi</i> bahor kirib keldi. Butun tabiat jonlanib, yashil tusga <i>burkandi</i>. Daraxt va gullarning hidi dimoqqa uriladi, mayin shabada kishi <i>qalbini qitiqlaydi</i>.</p>
---	---

<p>oq gullari har kimni xursand qiladi. Bolalarning quvonchi cheksiz, atrofda bir-biridan chiroyli varraklar uchmoqda. Bobo dehqonlar bahorning ajib tarovatidan zavq olib, ekin ekish ishlariga kirishgan. Bog'larda qushlar sayraydi, ayniqsa, qaldirg'ochlar o'zlari uchun in qurish payiga tushib qolganlar.</p>	<p>Ayniqsa, o'rik daraxtining oppoq bo'lib gullagan shoxlari har kimning ko'zini quvnatib, dillarga orom bag'ishlaydi. Bolalarning quvonchi ichlariga sig'may, atrofda bir-biridan chiroyli varraklar parvoz eta boshlaydi. Bobo dehqonlar bahorning ajib tarovatidan zavq olib, ekin ekish ishlariga bel bog'lashgan. Bog'larda qushlar navo aylaydi, ayniqsa, bahor jarchilari qaldirg'ochlar o'zlari uchun in qurish payiga tushib qolganlar.</p>
--	---

O'qituvchi ushbu matnni hosil bo'lishi jarayonida o'quvchilar tomonidan aytilgan fikrlarni ham diqqat bilan tinglashi, ularni yo'naltirishi, ma'qul variantlarni eslatishi, nima uchun aynan shu variantni tanlaganligini izohlab berishi zarur. Ijodiy matn yaratilgach o'qituvchi yangi hosil bo'lgan matn tarkibidan o'quvchilar uchun tanish bo'lgan leksik vositalarni matn tarkibidan topib, quyidagi jadvalni to'ldirishni topshiriq sifatida beradi. Ularning ahamiyati haqida gapirib beradi.

Tasviriy ifoda	Fasllar kelinchagi, bahor jarchilari
Orttirma darajadagi sifat	Oppoq
Sifatlar	Yashil, mayin, oppoq, chiroyli,
Ko'chma ma'nodagi so'z	Qalbini qitiqlamoq, ko'zni quvnatmoq
Ibora	Ichlariga sig'maydi, bel bog'lamoq

Ijodiy matn yaratish jarayonini bosqichli tarzda amalga oshirish, albatta, endigina badiiy matn yaratishni o'rganayotgan yoshdagi o'quvchilar uchun tavsiya etiladi. Badiiy matn yaratish ko'nikmalarini ma'lum darajada o'rgangan

o‘quvchilar keyinchalik berilgan matnni o‘zlari mustaqil biroz umumiy bo‘lgan topshiriqlar yordamida badiiy tasviriy vositalar bilan boyitib borishlari mumkin.

“GAZETAGA MAQOLA” USULI

O‘qituvchi ushbu usuldan ma’no ko‘chish turlari haqidagi nazariy ma’lumotlarni berib, ushbu ma’lumotlar mustahkamlanib, nazorat qilib bo‘lingach foydalanishi tavsiya etiladi. Ushbu usul o‘quvchilarni ijodiy izlanishga chorlaydi. Izlanish bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriqlar esa o‘quvchining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, mustaqil holatda ko‘p ma’noli so‘zlarni qidirib topishga va ularni kerakli o‘rinda qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Buning uchun guruhlarga biror-bir voqea-hodisa aks etgan, tabiat tasviri yoki biror-bir bayram, tadbir voqealari ifodalangan 6 ta rangli rasmlarni taqdim etadi. So‘ng ushbu rasmlar asosida gazeta uchun publitsistik maqola yozishni topshiradi. O‘zlarining maqolasida ma’no ko‘chish hodisalaridan eng ko‘p va o‘rinli qo‘llay olgan guruh rag‘bat kartochkasiga ega bo‘ladi. Boshqa guruh esa ushbu maqola qaysi rasm asosida yozilganligini topishi lozim bo‘ladi.

“ZEHNLI KITOBXON” USULI

Bu usulda o‘quvchilarga ma’no ko‘chish turlari qatnashgan matnlarni izlab topish, matn tarkibida qo‘llangan ma’no ko‘chish turlari haqida ma’lumot berish, matnning badiiyligi nimaning hisobiga yuzaga chiqayotganligi haqida axborot berish so‘raladi.

Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar ma’no ko‘chish turlari ishtirok etgan matnlarni qidirib topish, matn tarkibida ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni qidirish qiyin ekanligi haqidagi xulosaga keladilar. Bu esa o‘z navbatida yozuvchilardan muayyan bir asarni yaratishda qanday mahorat talab etilishini bilib olishlariga yordam beradi.

Yuqoridagi kabi usullardan foydalanib, o‘tilgan mavzular mustahkamlanib bo‘lingach, oxirgi bosqichda o‘quvchilar uchun ma’no ko‘chish turlari qatnashgan ijodiy matn yoki insho yozish topshirig‘i beriladi.

Ko‘rib turganingizdek, ona tili darsidagi har bir mavzuni qiziqarli va o‘quvchi nutq madaniyatiga, hissiy-ta’siriy jihatdan boyishiga ko‘mak beruvchi mashq va topshiriqlarni, turli xil o‘yinlarni tashkillashtirishgan holda olib borish mumkin. Bu esa o‘qituvchidan juda katta ijodkorlik, mahorat talab etadi. Yuqorida biz ma’no ko‘chish turlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish va so‘z boyligini oshirishga qaratilgan darslarni “Venn diagrammasi”, “Qiyosiy tahlil”, “Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldir”, “Mantiqiy mushohada”, “Uyadosh so‘zlar guruhi bilan ishlash”, “Izohli lug‘at”, “Ijodkor o‘quvchi”, “Askiya payrovi”, “Kim chaqqon?”, “Ijodkor o‘quvchi”, “Gazetaga maqola” hamda “Zehnli kitobxon” kabi usullar bilan boyitish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o‘tdik.

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Tadqiqot natijalarini tajriba-sinovdan o'tkazish uchun tayyorlangan materiallar

Tadqiqotda berilgan usullarni qo'llash va ochiq darsni o'tishdan oldin berilgan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan parchalarda qaysi bir so'z o'z va ko'chma ma'nosida qo'llanilmoqda. Ularga izoh bering.

Shundan so'ngra sen qadah ushlab,

Humor ko'z-la boqqin samoga.

Tingla qushning ezgu orzusin.

Quloq bergin mayin navoga.

(H. Olimjon)

2-topshiriq. Berilgan badiiy matn tarkibida ma'no ko'chishning qanday turlari ishtirok etgan, ularni aniqlang va izohlang.

Kitoblar – insoniyatning eng bebaho ma'naviy mulki, mislsiz xazinasini. Undan har birimiz foydalanishimiz, aqlimizni xohlaganimizcha uning dur-u javohirlari bilan to'ldirishimiz mumkin. Undan kuch-quvvat olish, ma'naviyatimizni boyitish imkoniga egamiz. U shunday mo'jizaviy xazinaki, qancha olsangiz ham bir qatrasini kamaymaydi. Bu xazinaning kaliti qo'l yetmas joyga ilingan emas. Uning kaliti – mutolaa. Bu kalit doimo sizning ixitoyiringizda. Faqat kutubxonaga kirishga xohish bo'lsa bas.

3-topshiriq. Ushbu she'riy parchada ma'no ko'chishning qaysi turi ishtirok etgan. Umrning daftarga qiyoslanishi va uning bezatilishi deganda siz nimani tushunasiz?

Aziz asrimizning aziz onlari,

Aziz odamlardan so'raydi qadrin.

Fursat g'animatdir shoh satrlar-la

Bezamoq chog'idir umr daftarin.

4-topshiriq. Berilgan test savollariga javob bering.

1. Bosh va ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan so‘z nima deyiladi?
 - A. Atamalar
 - B. Bir ma’noli so‘zlar
 - C. Ko‘p ma’noli so‘zlar
 - D. Barcha mustaqil so‘zlar
2. Qaysi javobda ko‘p ma’noli so‘zni shakldosh so‘zlardan farqlovchi asosiy xususiyat berilgan?
 - A. Ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nosi gapda namoyon bo‘ladi
 - B. Ko‘p ma’noli so‘zlar gap bo‘laklari bo‘la oladi.
 - C. Ko‘p ma’nolilik mustaqil so‘z turkumlariga xos
 - D. Ko‘p ma’noli so‘zlar nechta ma’noga ega bo‘lmasin, ma’nolar o‘zaro bog‘langan bo‘ladi
3. Metafora usuli bilan so‘z ma’nosi ko‘chirilgan qatorni toping.
 - A. Avval o‘yla, keyin so‘yla.
 - B. Oltin o‘tda bilinadi, odam – mehnatda.
 - C. Yam-yashil daraxtlar shabbodada mayinsilkinadi.
 - D. Talabalik – oltin davrim.
4. Sinekdoxa deb nimaga aytiladi?
 - A. Narsalarning vazifasi asosidagi ma’no o‘chirilishiga
 - B. O‘xshashlik asosidagi ma’no ko‘chirilishiga
 - C. Butun orqali qismni, qism orqali butunning ifodalanishiga
 - D. Aloqadorlik asosidagi ma’no ko‘chishiga
5. Temir qonun, kumush qish, za’faron yuz birikmalarida so‘z ma’nosi ko‘chishining qaysi usuli mavjud?
 - A. Metafora
 - B. Metonimiya
 - C. Sinekdoxa
 - D. Vazifadoshlik

Biz tavsiya etgan usullar, o‘tilgan ochiq darslar, olib borilgan tushuntirish ishlaridan so‘ng o‘quvchilarning ma’no ko‘chish turlariga oid bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini sinash maqsadida guruhdan quyidagi ko‘rinishda nazorat ishi olindi.

1-topshiriq. Berilgan parchalarda qaysi bir so‘z o‘z va ko‘chma ma’nosida qo‘llanilmoqda. Ularga izoh bering.

Avaz o‘rnidan qushday yengil bo‘lib turdi. Oppoq bo‘lib yorishgan yangi tong havosidan, bezovta ko‘nglida tug‘ilgan yangicha bir tuyg‘ular navosidan jon-jahoni yayradi.

(S. Siyoyev)

2-topshiriq. Berilgan badiiy matn tarkibida ma’no ko‘chishning qanday turlari ishtirok etgan, ularni aniqlang va izohlang.

Hosildan bo‘shab, ko‘kragiga shamol tekkan kuzgi dalalarda ajoyib fayz bor. Dov-daraxt, o‘t-o‘lan xuddi yer kabi oltin tus oladi. Kanallar, ariqlarda hayqirib oqayotgan suvlar kumushdek toza, tiniq. Yoz kirguncha endi ularga hech kim tegmaydi, yo‘lini to‘smaydi.

(O‘. Hoshimov)

3-topshiriq. Berilgan test savollariga javob bering.

1. Ko‘chma ma’noli so‘z qaysi gap tarkibida qo‘llangan?
 - A. Qora kunda qul Tarlon qizga qayg‘udosh keldi.
 - B. Bekorchidan bemaza gap chiqadi.
 - C. Barcha gaplarda ko‘chma ma’noli so‘z qo‘llangan.
 - D. Qaddi rost shamning tilidan o‘rtanur parvona ham.
2. Butun orqali bo‘lakni ifodalash ma’no ko‘chishning qaysi turiga xos?
 - A. Sinekdoxa
 - B. Vazifadoshlik
 - C. Metonimiya
 - D. Metafora

3. Quyidagi gaplarning qaysi birida gul soʻzi koʻchma maʼnoda qoʻllanmoqda?

1. *Turmush goʻzal va shirin, kundan-kun yashnar gulday.* 2. *Yashnamoqda gul turmush, biz tinchlikni istaymiz.* 3. *Topgan gul, topmagan bir bogʻ piyoz.* 4. *Sen uy ichining choʻrisi boʻlma, guli boʻl, guli.*

A. 1,4 B. 1,3,4 C. 2,4 D. 1,2,3,4

2. *Dunyoda oʻzimizdan keyin qoldiradigan tuyogʻimiz faqat shul Otabekdir, deb yozdi Yusufbek Xoji.* Ushbu gapda maʼno koʻchishning qaysi turi ishtirok etgan?

A. Metonimiya
B. Metafora
C. Sinekdoxa
D. Vazifadoshlik

A. *Haybatli sharsharalar sochar kumush zarralar?* Gapda maʼno koʻchishning qaysi turi ishtirok etgan?

B. Metonimiya
C. Metafora
D. Sinekdoxa
E. Vazifadoshlik

3. Sinekdoxa usuli bilan maʼno koʻchgan gapni aniqlang.

A. Umrini ilmga bagʻishlagan odam abadiy umrga erishadi.
B. Dunyoda tashvishlarni koʻp chekdi boshim.
C. Mehmonlar uchun meva-cheva, quyuq-suyuq tortildi.
D. El ogʻziga elak tutib boʻlmaydi.

4. *Koʻk yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz koʻyga solardi.* Ushbu gapda maʼno koʻchishning qaysi turi ishtirok etgan?

A. Metonimiya
B. Metafora
C. Sinekdoxa
D. Vazifadoshlik

5. Narsalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik asosidagi ma'no ko'chirilishi qanday nomlanadi?
- A. Sinekdoxa
 - B. Vazifadoshlik
 - C. Metafora
 - D. Metonimiya
6. Mulk so'zi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llanmagan?
- A. Davlat mulkini, xalq mulkini ko'z qorachig'iday saqlashimiz kerak.
 - B. Husn mulkida ishi tanho bo'lurmi muncha ham.
 - C. Oybek qalamiga mansub asarlar allaqachon qardosh xalqlarning ma'naviy mulkiga aylandi.
 - D. Barcha javoblarda mulk so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan.
7. *O'n qo'li o'n hunar*. Berilgan iborada ma'no ko'chishning qaysi turi mavjud?
- A. Sinekdoxa
 - B. Vazifadoshlik
 - C. Metafora
 - D. Metonimiya

4-topshiriq. *Burun, tish, ko'z* so'zlarini o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llab gaplar tuzing.

3.2. Ma'no ko'chish turlarini o'rganish orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini oshirishga doir dars ishlanmasi

DARS ISHLANMASI

Mavzu: Metafora va uning uslubiy xususiyatlari

Guruh: Xf1 – 16

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga so'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqida chuqur bilim berish, ularga metafora haqida nazariy ma'lumot berish;

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilar qalbida ona tiliga muhabbat, hurmat tuyg‘usini o‘stirish, o‘zaro do‘stona munosabatning axloqiy sifatlarini kamol toptirish;

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning uslubi: ma’ruza, tushuntirish, lug‘atlar bilan ishlash, “Jumboq ko‘chasi”, “T-sxemasi” jadvali, “Uyadosh so‘zlar bilan ishlash daqiqasi”, “Mantiqiy mushohada”.

Darsning jihozi: darslik, kompyuter, proyektor, so‘rovnomalar. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Men sizni nomladim” askiya payrovi kitobi

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan salomlashib bo‘lgach, davomatni aniqlaydi. Dars rangli figuralar orqali o‘quvchilarni 2 ta guruhga bo‘lish bilan boshlanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:

Har bir guruhga o‘tilgan mavzuni takrorlash va guruh o‘quvchilarining bilimlarini aniqlash maqsadida “Jumboq ko‘chasi” texnologiyasi asosidagi jadvallar tarqatiladi. Bunda o‘quvchilar jadvalni ma’lumotlar bilan to‘ldirishlari, izohlashlari kerak bo‘ladi.

Tayanch	Izoh, ta’rif
Ko‘chma so‘zlar	<i>gapdan tashqarida bir ma’noni, gap tarkibida boshqa ma’noni ifodalaydigan so‘zlar</i>
	<i>So‘zlarning borliqdagi ma’lum narsa, belgi-xususiyat, harakat-hoлатlarni bildirishi</i>
	<i>So‘zning matndan tashqaridagi ma’nosi</i>

<i>O‘zbek tili lug‘at boyligining katta qismini tashkil etadi</i>
<i>Qo‘l, til, bosh, po‘lat, oyoq, tish, kir, bel, yur, qalin, yengil, dum, tumshuq, issiq, shirin, yo‘l, achchiq, to‘g‘ri kabi so‘zlar</i>
<i>qarzni uzmoq, ishning boshi</i>
<i>So‘zning matn ichidagi ma‘nosi</i>
<i>leksika (so‘z) haqidagi ta‘limot</i>

Topshiriqni to‘g‘ri bajargan guruhga rag‘bat kartochkasi beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

O‘tilgan mavzu mustahkamlanib olingach, guruhlarga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalanib *achchiq, baland, davlat, yelka, ildiz, kasal, shunqor, o‘t* so‘zlarining to‘g‘ri (o‘z) va ko‘chma ma‘nolarini aniqlash hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlash topshirig‘i beriladi.

O‘quvchilar bu topshiriqni quyidagicha bajarishlari mumkin:

So‘zlar	Izohlar
Achchiq	1. Ta‘mi og‘iz-tilni achitadigan, loyillatadigan ta‘m. 2. <i>Ko‘chma</i> : kishiga qattiq tegadigan, ko‘ngliga ozor beradigan. <i>Achchiq so‘z</i>
Baland	Pastdan yuqoriga tomon, o‘lchami uzun; qaddi, bo‘yi uzun, novcha <i>Ko‘chma</i> : ba‘zi bir belgi xususiyatlarning me‘yoridan ortiq, yuqori darajadiligini ifodalaydi. <i>Qishloq qizining g‘ururi baland bo‘ladi.</i>
Davlat	Boylik, mol-dunyo, mol-mulk. <i>Ko‘chma</i> : ma‘naviy boylik, baxt-omad. Hamjihatlik – davlat, yolg‘izlik kulfat.
Yelka	Qo‘lning tanaga yaqin qismi. <i>Ko‘chma</i> : kiyimning yelka ustida turadigan qismi. <i>Ko‘ylakning yelkasi to‘g‘ri kelmadi.</i>
Ildiz	O‘simlikning yerdan suv va o‘g‘it olib beradigan yer osti qismi. <i>Ko‘chma</i> : asos, negiz, manba. <i>Qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an‘analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq</i>

	<i>etmog'imiz kerak.</i>
Kasal	Organizmning me'yoriy holati buzilgan, kasallika yo'liqqan, betob. <i>Ko'chma:</i> odatga aylangan ish-harakat. –Sa'vani yaxshi ko'rasizmi? – Otadan qolgan kasallik bu,-kulib javob berdi Yo'ldoshev.
Shunqor	Lochinsimonlar oilasiga mansub kuchli yirtqich qush. <i>Ko'chma:</i> mard, jasoratli, botir shaxsga nisbatan. <i>Dala shunqorlari bu yerga (klubga) kino ko'rish, yangiliklar bilan tanishish uchun to'planganlar.</i>
O't	Yonish jarayoni, olov, otash. <i>Ko'chma:</i> kishi ruhiyati, qalbidagi alanga, olov kabi “yondiruvchi”, “kuydiradigan” holat. <i>U kishilar qalbida g'ayrat o'tini yoqa oladi.</i>

Birinchi bo'lib vazifani mukammal bajargan guruh rag'bat kartochkasiga ega bo'ladi.

Yangi mavzu slaydli ilovalar bilan tushuntiriladi.

Ko'p ma'noli so'zlar va ma'nolarning to'g'ri va ko'chma ma'nolarga bo'linishini yuqorida ko'rib o'tdik.

Borliqdagi narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda bitta nom bir necha narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holatlarning nomi sifatida xizmat qiladi. Masalan, burun so'zi “tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi” ma'nosini ifodalash bilan birgalikda “yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi” ma'nosini ham ifodalaydi. Predmetlar o'rtasidagi tashqi o'xshashlik (yuz qismdan bo'rtib chiqqan burun bilan yer qirg'og'ining dengiz yoki okeanga qarab bo'rtib chiqishi o'rtasidagi o'xshashlik) birining nomini ikkinchisi o'rnida qo'llashga asos bo'lgan.

Metafora

So'z

Metafora (yunoncha metaphora — ko‘chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma’lum o‘xshashlik asosida ko‘chishidir.

METAFORA

- **Metafora- ikki predmet o‘rtasidagi shakily o‘xshashlik.**
- **Ikki predmet qayerda joylashishi bo‘yicha o‘xshashlik.**

IV. Mustahkamlash:

Yangi mavzu haqidagi nazariy ma’lumot berib bo‘lingach, **“Uyadosh so‘zlar guruhi bilan ishlash”** daqiqasi tashkillashtiriladi.

Topshiriq. Berilgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan uyadosh so‘zlar guruhini hosil qiling. Ushbu so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarida qo‘llab gaplar tuzing.

Masalan:

- 1. O‘simlik bilan bog‘liq so‘zlar:** ildiz, gul, urug‘, nihol, kurtak va h.
- 2. Oshxona anjomlari:** elak, piyola, tovoq, qoshiq, choynak va h.
- 3. Inson tana a‘zolari:** ko‘z, quloq, burun, qo‘l, barmoq va h.

1. O‘z ma’nosida: *Bemaza qovunning **urug‘i** ko‘p bo‘ladi.*

Ko‘chma ma’noda: *Ertaklar bolajonlarning ko‘ngliga yaxshilik **urug‘ini** sochadi.*

2. O‘z ma’nosida: *Choynak-**piyolalarni** tozalab yuvib, joy-joyiga taxlab qo‘ying, qizim.*

Ko‘chma ma’noda: *Ikki **piyolani** ichdim-u, chanqog‘im qoldi.*

3. O‘z ma‘nosida: ***Ko‘z o‘tkirligini yaxshilash uchun ko‘proq baliq va baliq mahsulotlarini tanavul qilib turish lozim.***

Ko‘chma ma‘noda: *Ikki ko‘zi har nav mollar bilan to‘la xurjunni yelkaga tashlab, inqillab kirdi.*

So‘ngra darslik bilan ishlanadi.

66-mashqdagi misollar o‘quvchilarga o‘qib berilgach, shu mashq asosida guruhlar o‘zaro askiya payrovi o‘tkazishadi. Askiya payrovi “Men sizni nomladim” deb ataladi.

1-guruh a‘zolaridan biri 2-guruhdan istagan bir o‘quvchiga qarab: “Men sizni o‘xshatdim she‘r kelbatli arslonga, shuning uchun sizni Arslonxon deb atadim”, - deydi. “Yangi nom olgan” bu o‘quvchi o‘z navbatida 1-guruhdagi istagan bir o‘quvchiga metafora yo‘li bilan nom qo‘yadi. Askiya payrovi shu zaylda guruhlararo o‘tkazilib, xato nomlab qo‘ygan yoki metafora yo‘li bilan nomlay olmagan guruh o‘yindan chetlatiladi. G‘olib guruh rag‘bat kartochkasiga ega bo‘ladi.

“MANTIQUIY MUSHOHADA” USULI

Ushbu usulda guruhlar uchun ko‘chma ma‘no turlari qatnashgan kichik ijodiy matnlar topshiriladi. So‘ng ushbu matn asosida o‘quvchilarning mantiqiy mushohada qilishlari uchun bir nechta savol va topshiriqlar beriladi.

Masalan:

To‘rt toifa

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan do‘st-shunchaki do‘st.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida g‘oyib bo‘ladigan do‘st-do‘st emas.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida xiyonat qiladigan “do‘st”- dushman.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan quvmaydigan, boshingga bulut kelganida izingdan qolmaydigan do‘st-haqiqiy do‘st.

1. Ushbu matn tarkibida ma'no ko'chishning qanday turlaridan foydalanilgan?
2. Ushbu o'xshatishni o'z so'zlaringiz bilan izohlang. *Boshingda quyoshning charaqlashi* –
3. Ushbu o'xshatishni o'z so'zlaringiz bilan izohlang. *Boshingga bulut kelishi* –
4. Ushbu ko'chimlarning tabiat hodisalari bilan qanday aloqasi bor. O'z fikrlaringizni bildiring.
5. Ma'no ko'chish yo'llari ishtirokida “Haqiqiy do'st” mavzusida ijodiy matn yarating.

Charxpalak

*Maktabimiz **biqinida** ariq oqardi. Ariqda charxpalak bor edi. Katta tanaffusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko'rardim... yog'och gardishi ko'hna, temir paqirchalari zanglab ketgan. Parraklariga ko'kimtir suv o'tlari yopishgan. Birov yolg'ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek. Charxpalak **nolali** g'iyqillab aylanadi. **Kaftida** suv ko'tarib, yuqoriga olib chiqadi, tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi. Charxpalak ham bunga **ranjimaydi**. Yangidan-yangi suv tomchilarini yuqoriga ko'tarib beraveradi... g'iyqillaydi... Oradan ko'p yillar o'tib, o'sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo'ldi. Nega shunday bo'lganini uzoq o'yladim...*

*So'ng... bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo'msar ekanman. Suv-suv emas, men ekanman! Charxpalak- charxpalak emas, o'qituvchilarim ekan! Meni-bir tomchi suvni katta hayot yo'liga olib chiqib qo'ygan **ustozlarim-charxpalak** zahmatini oqlay oldimmikan?... Bilmadim.*

...Ko'hna charxpalak hamon tushlarimga kiradi...

1. Ushbu matn tarkibidan ma'no ko'chishning qaysi yo'llaridan foydalanilgan? Ularni izohlang.
2. Ushbu matn tarkibidagi “ko'hna” so'zining ma'nosini izohli lug'at yordamida bilib oling.

3. Charxpalakning hayotdagi vazifasi va ustozning vazifalari o'rtasida qanday o'xshashlik bor?
4. *Suv-suv emas, men ekanman!* Ushbu gapni ma'no-mazmun jihatdan tahlil qiling.
5. Ushbu matn ta'sirida o'zingiz mustaqil "Ustozlarni hurmatlash bayonida" mavzusida ijodiy matn yarating. Ushbu matn tarkibida ma'no ko'chish yo'llaridan foydalaning.

V. Baholash: Dars yakunida g'olib guruh aniqlanadi va faol o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa: 64-69-mashqlar.

Ushbu usulda darslarni tashkil etganda o'quvchilar "O'zbek tilining izohli lug'ati" bilan ishlashga o'rganadilar, o'quvchilarda so'z ma'nolarini farqlash ko'nikmasi oshadi, hozirjavoblikka va jamoa bo'lish ishlashga o'rganadi. Shuning bilan birga estetik tarbiyasi shakllanadi.

3.3. Tajriba –sinov ishlari bo'yicha tahlil

Avvalo, ma'no ko'chish turlarini o'rgatish usullarini tavsiya etishdan oldin biz o'quvchilarda mavjud bo'lgan ma'no ko'chish turlari haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarning bugungi kundagi holatini o'rganish maqsadida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba-sinov ishlari JIDU qoshidagi Shayxontohur akademik litseyining XF1 – 16-guruhida 27 nafar o'quvchi bilan amalga oshirildi.

Asoslov bosqichida tajriba-sinov guruhining XF1 – 16 guruh o'quvchilaridan 10 nafari bilan individual va jamoaviy tarzda suhbatlar, so'ngra berilgan badiiy matn tarkibidan ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni topish, berilgan so'zlarni o'z va ko'chma ma'nodagi so'zlar guruhiga ajratish, test topshirig'i, so'zlarni mustaqil holatda o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llab gaplar tuzish kabi mashq va topshiriqlar berildi.

Ushbu natijalar matematik yo'l bilan tahlil qilindi. 1-topshiriqdagi o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar miqdorini aniqlash bo'yicha berilgan topshiriqda guruhdagi o'quvchilarning 14 (52 %) tasi o'z ma'nosida kelgan so'zlar

miqdorini to'g'ri topganlar, ammo ko'chma ma'noda kelgan so'zlar miqdorini to'g'ri aniqlay olmaganlar. 5 (18 %) nafar o'quvchi esa topshiriqni to'g'ri bajarib, o'z va ko'chma ma'noda kelgan so'zlar sonini aniqlay olganlar. 8 (30 %) nafar o'quvchi esa taxminiy sonlar bilan topshiriq shartiga javob berganlar.

Keyingi 2-topshiriqda o'quvchilar berilgan matn tarkibidagi ma'no ko'chish hodisalarini aniqlashi va ularni izohlashi so'ralgan edi. Guruhdagi o'quvchilarning 17 (63 %) nafari birinchi topshiriqni bajargandan so'ng ko'chma ma'nodagi so'zlar haqidagi ma'lumotlarni esga olgan holda keyingi topshiriqdagi ko'chma ma'noda kelayotgan so'zlarni aniqlay oldilar, lekin ularga hech qanday izoh bera olmadilar. Guruhdagi o'quvchilarning 6 (22 %) nafari esa matn tarkibida ma'no ko'chish hodisalarini aniqlab, ularga bir muncha izoh berishga harakat qilganlar. 4 (15 %) nafar o'quvchi matn tarkibidagi ko'chma ma'noda kelgan so'zlarni aniqlashda ham, ularni izohlashda ham xatoliklarga yo'l qo'yganlar.

Uchinchi topshiriqda esa o'quvchilardan "Berilgan she'riy parchadagi ma'no ko'chish hodisasini aniqlash va "umrning daftarga o'xshatilishi, uning bezatilishi" degandan siz nimani tushunasiz?" mazmunidagi topshiriq berilgan edi. O'quvchilarning aksariyat qismi, ya'ni 20 nafari (74 %) she'riy parchadagi ma'no ko'chish hodisasini nomlay olmagan bo'lsalar-da, umrning daftarga qiyoslanishi, daftarning bezalishi haqidagi fikr-mulohazalarini kimdir oz, kimdir to'liq holatda bildira olganlar. Bunga esa albatta, o'quvchilarning she'rning to'liq matni bilan oldindan tanish ekanliklari yordam berdi. Qolgan 5 (18 %) nafar o'quvchi esa she'riy parchada ma'no ko'chish hodisasini ham nomlay oldi, ham undagi o'xshatishni izohlab berdi. 2 (7 %) nafar o'quvchi esa hech qanday fikr bildira olmadilar.

O'quvchilarning bilimini sinash uchun berilgan test topshiriqlariga esa 9 (33 %) nafar o'quvchi berilgan 5 ta savolning hammasiga to'g'ri javob bera oladi, 16 (59 %) nafar o'quvchi esa 3-4 ta savolga to'g'ri javob bera oldi. Qolgan 2 (7 %) nafar oquvchi topshiriqlarning 1-2 tasiga to'g'ri javob bera olgan.

Olib borilgan matematik tahlil asosida tajriba-sinov guruhining ma'no ko'chish yo'llariga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari quyi darajada deb

topildi. Ya'ni, o'quvchilar o'rganilayotgan mashqlardagi asosiy mohiyatni anglashga qiynalishdi, asosiy e'tiborni ikkinchi darajali belgi, xususiyat, faktlarga qaratishdi, analiz, sintez, umumlashtirish usullarini qo'llay olishmadi, bunda har doim o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'lishdi, ko'pincha tayyor yechimlardan foydalanishga moyilliklari sezildi.

Biz tavsiya etgan usullar, o'tilgan ochiq darslar, olib borilgan tushuntirish ishlaridan so'ng o'quvchilarning ma'no ko'chish turlariga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini sinash maqsadida guruhdan oldingi topshiriqlarga o'xshash topshiriqlardan iborat bo'lgan nazorat ishlarini olish tashkillashtirildi. Ushbu nazorat ishlari 29 nafar o'quvchi bilan olib borildi.

Nazorat uchun berilgan 1-topshiriqda, ya'ni berilgan matn tarkibidagi o'z va ko'chma ma'nodagi so'zlarni aniqlash topshirig'ini 14 (48 %) nafar o'quvchi o'z ma'nosida kelgan so'zlarni aniqlay olganlar, ko'chma ma'nodagi so'zlarning bir nechtasini ko'rsatganlar, 9 (31 %) nafar o'quvchi esa topshiriqni to'g'ri bajarib, o'z va ko'chma ma'noda kelgan so'zlar sonini to'g'ri ko'rsatdilar. 6 (21 %) nafar o'quvchi esa o'z va ko'chma ma'noda kelgan so'zlarni aralash holda ko'rsatganlar.

Keyingi 2-topshiriqda esa o'quvchilar berilgan matn tarkibidagi ma'no ko'chish hodisalarini aniqlashi va ularni izohlashi so'ralgan edi. Berilgan topshiriqni 12 (41 %) nafar o'quvchi matn tarkibidagi ma'nosi ko'chgan so'zni aniqlay oldi, ularga tegishli izohni bera oladi. 12 (41 %) nafar o'quvchi matn tarkibidagi ma'nosi ko'chgan so'zni aniqlay oldi, ammo unga tegishli izohni noto'g'ri berdi. 5 (18 %)nafar o'quvchi esa matn tarkibidagi ko'chma ma'noda kelgan so'zlarni aniqlash va izohlashda xatoliklarga yo'l qo'ydi.

Uchinchi topshiriqdagi test savollariga javob berishda guruhdagi o'quvchilarning 11 (38 %) nafari berilgan test topshiriqlarning barchasiga to'g'ri javob bergan bo'lsalar, 14 (48 %) nafari 3-4 ta savolga to'g'ri javob bera oldilar. 4 (14 %)nafar o'quvchi esa 1 ta yoki 2 ta savolga to'g'ri javob berganlar.

To'rtinchi berilgan ko'p ma'noli so'zlarni o'z va ko'chma ma'nosida qo'llab gaplar tuzish topshirig'ini esa 11 (38 %) nafar o'quvchi to'g'ri bajara oldi. 15 (52 %) nafar o'quvchi esa berilgan so'zlarning hammasiga ham gaplar tuza olmadilar.

3 (10 %) nafar o‘quvchi esa berilgan so‘zlarni faqatgina o‘z ma’nosida qo‘llab gaplar tuza oldilar.

Biz ushbu matematik tahlil natijalarini o‘zaro solishtirish imkoniyatini yuzaga keltirish maqsadida quyidagi jadvalga joylashga harakat qildik.

O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari (foiz hisobida, birinchi natija)		
	Yuqori	O‘rta	Quyi
27	23 %	62 %	15 %
O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari (foiz hisobida, keyingi natija)		
	Yuqori	O‘rta	Quyi
29	41,2 %	43 %	15,8 %

XULOSA

Ta'lim jarayoni barcha davrlarda ham kishilik jamiyatining barcha erishgan yutuqlari, yangiliklari va kelgusi taraqqiyotining asosiy omili hisoblangan. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni imkoniyati kengligi va o'ta xushyorlik bilan amalga oshirilishi isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir. Aynan ta'limga oid shart-sharoitlarni mukammalroq shakllantirish uchun bir qator izlanishlar muhimligi bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishimiz ma'no ko'chish turlarini o'qitish usullariga bag'ishlangan ekan, eng avvalo biz birinchi **“Ona tili ta'limida ma'no ko'chish turlarini o'rgatish usullarining ilmiy-metodik asoslari”** bobida ma'no ko'chish turlari haqida nazariy ma'lumot va uni o'qitish usullarining ilmiy-metodik adabiyotlarda yoritilishi hamda o'quvchilarning nutq madaniyatini ma'no ko'chish turlari orqali rivojlantirish imkoniyatlari yuzasidan dastur va darsliklar tahliliga e'tiborimizni qaratdik. Biz tanishgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ma'no ko'chish yo'llari ilmiy jihatdan jahon va o'zbek tilshunoslari tomonidan yetarlicha o'rganilgan. Mana shu o'rganilgan nazariy ma'lumotlar asosida o'zbek tili o'qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqib, ma'no ko'chish turlarining nutqdagi ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish, o'quvchilar nutqida ma'no ko'chish turlaridan foydalanishni faollashtirish uchun ushbu mavzu bilan bog'liq bo'lgan bir qancha innovatsion usullarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish o'zbek tili o'qitish metodikasi fanining muhim vazifalaridan biri degan xulosaga keldik.

Dastur va darsliklar tahlili olib borilganda esa umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar 5-sinfda so'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqidagi bilimlar bilan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ma'no ko'chish turlari bilan tanishishi aniqlandi. Darsliklarda ushbu mavzular bilan bog'liq mashq va topshiriqlar berilgan bo'lib, ularni har bir o'qituvchi o'zining ijodiy yondashuvi yordamida boyitgan holda tashkillashtirishi mumkin. Ayniqsa, biz yuqorida alohida ta'kidlab ko'rsatgan mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi ona tilimizning

naqadar boy ekanligiga, nutqimizning jozibali va ta'sirchanligini oshirishda ma'no ko'chish hodisasining ishtiroki qay darajada muhim ekanligiga yana bir bor guvoh bo'ladi. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan bog'liq bo'lgan mashqlarni bajarish davomida o'quvchilar xalqimizning azal-azaldan so'zga chechan, so'zamol xalq ekanligini ko'rib, ushbu so'zamollikni yuzaga keltirishda ma'no ko'chish turlarining juda katta ahamiyatga ega ekanligini bilib oladilar.

Ikkinchi bob **“Ma'no ko'chish turlarini o'rgatish metodikasi”**ga bag'ishlangan bo'lib, ona tili darslarida ma'no ko'chish turlarini o'rganish orqali nutq madaniyatini rivojlantirishning mazmuni ko'rib chiqildi va quyidagi xulosaga kelindi: ma'no ko'chish turlarini o'qitish jarayonida eng avvalo, o'quvchilarga uning nutqdagi ahamiyatini tushuntirish, o'quvchilarni so'zlarni o'z va ko'chma ma'nolarini farqlashga, ko'chma ma'nodagi so'zlarni aniqlay olish, ularni izohlash va o'z nutqlarida qo'llay olish darajasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanishiga asosiy e'tiborni qaratishi kerak bo'ladi.

Shuningdek, ushbu bobda ma'no ko'chish turlarini ona tili va adabiyot darslarining o'zaro integratsiyasi asosida o'rganish bo'yicha ayrim tavsiyalar berib o'tildi. Ona tili va adabiyot darslarini o'zaro integratsiya asosida tashkil etilishi o'rganilayotgan badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganish bilan birga, alohida bosqichda shu badiiy matnda mavjud bo'lgan badiiy tasvir vositalarini aniqlashga, ularga nisbatan e'tiborli bo'lishga, bundan tashqari ushbu vositalarning ona tili fanining o'rganilayotgan hodisalar bilan qanday aloqadorlik hosil qilishini anglash uchun juda katta yordam beradi degan xulosaga kelindi.

Shu bilan birgalikda, ma'no ko'chish turlarini o'rgatish orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning metodlari takomillashtirildi. Ona tili darslarida har bir mavzuni qiziqarli va o'quvchi nutq madaniyatiga va nutqning hissiy-ta'siriy jihatdan boyishiga ko'mak beruvchi mashq va topshiriqlarni, turli xil o'yinlarni tashkillashtirish imkoniyati mavjudligi aytib o'tildi. Bu esa o'qituvchidan juda katta ijodkorlik, mahorat talab etadi. Yuqorida biz ma'no ko'chish turlarini o'qitish orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish va so'z boyligini oshirishga qaratilgan darslarni “Venn

diagrammasi”, “Qiyosiy tahlil”, “Bo’sh o‘rinlarni to‘ldir”, “Mantiqiy mushohada”, “Uyadosh so‘zlar guruhi bilan ishlash”, “Izohli lug‘at”, “Ijodkor o‘quvchi”, “Askiya payrovi”, “Kim chaqqon?”, “Ijodkor o‘quvchi”, “Gazetaga maqola” hamda “Zehnli kitobxon” kabi usullar bilan boyitish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o‘tdik.

Uchinchi bob esa **“Ishning amaliyotga tatbiqi”** deb nomlandi va ushbu bobda ma’no ko‘chish turlarini o‘rganish orqali o‘quvchilarning nutq madaniyatini oshirishga doir ochiq dars ishlanmasi, tadqiqot natijalarini tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun tayyorlangan materiallar va olib borilgan amaliy ishlar bo‘yicha tahlil natijalari ko‘rsatildi. Ushbu tahlil natijalariga ko‘ra ma’no ko‘chish turlarini o‘qitishning zamonaviy, interfaol usullaridan foydalanish o‘quvchilarning ushbu hodisaning tildagi ahamiyatini bilishiga, undan nutqda o‘rinli foydalangan holda o‘quvchi nutqining hissiy-ta’siriy jihatdan boyitishiga juda katta yordam berdi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari samaradorlikni kafolatlashi, tizimlilik va izchillikni ta’minlashga xizmat qilishi, nutq madaniyatini rivojlantirishda ma’no ko‘chish turlarini o‘rgatishning yangi interfaol usullariga alohida e’tibor qaratilishi lozimligi haqidagi tadqiqot farazini to‘liq tasdiqladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to’g’risidagi qarori. Xalq so’zi, 2017-yil, 21-aprel.
5. Ona tili fanidan Davlat ta’lim standarti: Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.
6. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (5-9 sinflar). – Toshkent. 2016.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017- yil 7-fevraldagi farmoni.
8. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни //Ўзбекистоннинг янги Қонунлари: Тўплам. –Т., 1996. – Б. 20-30.
9. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.– Т.: Шарқ, 1998. – Б. 20-29.
10. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: O‘zbekiston, 2017.
11. Almatov T., Yadgarov Q. va Almatova Sh. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent, 2013.
12. Абдиев М., Сафаров П. Ноанъанавий дарс шакллари. (Она тили ва адабиёти учун қўлланма). – Самарқанд. 1996. 22 б.
13. Абдуллаев Й. Мактабда ягона орфография ва нутқ режими. – Т.: ЎзПФТИ, 1953
14. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения (общедидактический аспект). – М.: Педагогика, 1977.

15. Бабанский Ю.К., Поташник М.М. Оптимизация педагогического процесса (в вопросах и ответах). – Киев: Радянська школа, 1984 Бобомуродова А. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириклардан фойдаланиш. – Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1997.
16. Бухаловский Л. А. Введение в языкознание. – М.: Учпедгиз, 1954
17. Иноғомова Р. Феъл замонларини ўрганишда ўқувчиларнинг нутқи устида ишлаш. Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1974.
18. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда педагогик технологиялар. – Т., 2008. 181б.
19. Жўраев Р.Х., Рахимов Б.Х., Холматов Ш.Ф., Янги педагогик технологиялар. – Т.: Фан. 2005. 66 б.
20. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo‘raboyeva Z. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik /. To‘ldirilgan 4-nashri. – Т.: Ma’naviyat, 2015. – 224 b.
21. Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004.
22. М. Mirzayev, S. Usmonov, I. Rasulov. O‘zbek tili. –Т.: O‘qituvchi, 1970.
23. Mirtojdiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. –Т.: Fan. 2010.
24. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз. 2010.
25. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan 3-nashri. – Т.: Ilm Ziyo, 2010. – 223 b.
26. Никитина Г.Г. Обучение младших школьников творческим работам на основе интеграции языковой и литературной подготовки. Составление рассказа по серии сюжетных картинок // Начальная школа. – 2007. – № 5
27. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши, 2000.
28. Ўзбек мактабларида она тили таълими концепцияси // Тил ва адабиёт таълими. – 1994. – № 1. – Б. 8-13.
29. Ўзбек тили ўқитиш методикасининг долзарб масалалари. Алишер Навои номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети. – Тошкент, 2017.

30. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т. I. - М.: Русский язык, 1981.-Б. 380.
31. Ўзбекистон: Тил ва маданият. III серия. Ўзбек тили таълими. – Тошкент, 2017.
32. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977-yil.
33. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. 4-nashri.–Toshkent: Sharq, 2010.
34. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: O'qituvchi, 2003.
35. Раҳмонова Б., Файзиева Д., Жабборқулова А. Насрий матнда метафоранинг ўрни //Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Т.:2009
36. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
37. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.
38. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslik. – Toshkent. 1965.
39. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
40. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
41. Толипов Ў. Усмонбоева М., Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006.
42. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limining mazmuni. – T.: O'qituvchi, 1995.
43. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012.
44. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М., 2007.
45. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim makablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua/ Qayta ishlangan 3-nashri. – Toshkent: Sharq, 2013. – 368 b.
46. Yusupova Sh., G'oziyeva O. Ona tili o'qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013.

47. Йўлдошев Ж.Ғ. Усмонов С.А. Замоновий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. – Т.: Фан ва технология. 2008. 130б.
48. Зиёмухамедов Б., Педагогик технология – замонавий миллий модели. – Т., 2009. 103 б.
49. Зиёмухаммадов Б, Абдуллаева Ш., Илғор педагогик технология: Назария ва амалиёт. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2001.

Elektron sayt materiallari:

<http://uza.uz/oz/documents/alisher-navoiy-nomidagi-toshkent-davlat-zbek-tili-va-adabiye-13-05-2016>

<http://navoiy-uni.uz/uz-1/content/ozbek-tili-va-adabiyoti-boyicha-malakali-mutaxassislar-tayyorlashning-yangicha-tamoyillari>

<http://www.ziyonet.uz/>

<http://www.pedagog.uz/>

www.forum.uz

www.ref.uz

www.ilm.uz

www.google.uz

Lug‘at

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha
Adabiyot	Литература	Literature
Aloqadorlik	Причастность	
Amaliy	Практическое	Practical
Amaliyot	Практика	Practice
Bilim	Знание	Knowledge
Bo‘lak	Часть	Part
Didaktika	Дидактика	Didactics
Gap	Приложение	Sentence
Guruh	Группа	Group
Innovatsiya	Инновация	Innovation
Integratsiya	Интеграция	Integration
Interaktiv	Интерактив	Interactive
Izoh	Комментарий	Comment
Ko‘nikma	Способность	Ability
Leksikologiya	Лексикология	Lexicology
Ma‘no	Смысл	Meaning
Ma‘no ko‘chishi	Перенос смысла	
Malaka	Квалификация	Qualification
Maqsad	Цель	Goal
Metafora	Метафора	Metaphor
Metod	Метод	Method
Metonimiya	Метонимия	Metonymy
Monosemiya	Моносемия	Monosemia
Nutq	Речь	Speech
Polisemiya	Полисемия	Polysemy

Qayta nomlash	Переименование	Rename
Qism	Часть	Part
Sinekdoxa	Синекдоха	Synecdoche
So‘z	Слово	Word
So‘z birikmasi	Словосочетание	Collocation
So‘z boyligi	Словарный запас	Vocabulary
Ta’lim	Образование	Education
Tilshunoslik	Лингвистика	Linguistics
Usul	Способ	Way
Vazifa	Задание	Task
Og‘zaki	Устное	Oral
Yozma	Писменное	Written
Ko‘chma ma’no	Переносный смысл	Figurative sense